

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI

“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI

**“MADANIYAT VA SAN‘AT MUASSASALARINI TASHKIL
ETISH VA BOSHQARISH” TA‘LIM YO‘NALISHI**

**“TADBIRLAR DRAMATURGIYASIDA MA‘NAVIY-MA‘RIFIY
VA TARBIYAVIY ISHLAR TALQINI”**

**MAVZUSIDAGI
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bajardi: “Madaniyat va
san‘at muassasalarini tashkil
etish va boshqarish” ta‘lim
yo‘nalishi IV kurs bitiruvchisi
**Olimxo‘jayeva Maftuna
Murodjonovna**

Ilmiy rahbar: dotsent
V.Rustamov

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar dramaturgiyasi tasnifi	
1.1. Ma'naviy tadbirlarni tashkil etishning metodologik (uslubiy) asoslari.....	10
1.2. Yoshlarni ma'naviy- ahloqiy tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan foydalanishning o'ziga xos hususiyatlari.....	22
II BOB. Aholini ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni va roli	
2.1. Zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy tadbirlari dramaturgiyasi muammolari.....	38
2.2. Tadbirlar dramaturgiyasining tarbiyaviy ahamiyati va uni targ'ib qilishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni.....	43
XULOSA	54
GLOSSARIY	58
FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR	59

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, insonlarning ma'naviyatini oshirish, ularga ma'naviy ozuqa berish, yaxshi, farovon turmush sharoitlarini yaxshilash, o'z yurti, oilasi, kasbini sevish, ularni bilimli, ma'rifatli, komil inson qilish va boshqa ezgu maqsadlarga qaratilgan juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan qator-qator dasturlarning asosiy mohiyati ham ana shunday ulkan maqsadlarga yo'naltirilgan.

Mamlakatimizda bo'layotgan katta o'zgarishlar va muvaffaqiyatlarni tadbirlarimiz misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ma'naviy tadbirlarning oliy shakllaridan bir bo'lgan tadbirlar yurtimiz chiroyi, go'zalligi, maftunkorligini jahonga tarannum etmoqda. Ayniqsa, mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan so'ng tadbirlarni o'tkazish, tashkil etish va boshqarishga bo'lgan e'tibor va talab kuchaydi. Chunki tadbirlar yurtimiz, millatimiz ko'zgusidir.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar dramaturgiyasi kishilar hayotidagi eng quvonchli, hissiyotli damlar, xushkayfiyat chog'lar, birdamlik, mehr-oqibat, kelajakka ishonch tuyg'ularini o'zida qamrab olgan buyuk bir ijodiy va tashkiliy jarayondir. Tadbirlar o'z-o'zidan tadbir shakliga kelmaydi, uni tashkil etish kerak. "Kishilar imkoniyatini hisobga olib, zamon talablaridan kelib chiqib, milliylik, urf-odat, an'analarga sodiq qolgan holda, mavzu va g'oya uyg'unligida tashkil etilgan tadbir va tomoshalar yuqori darajada o'tkazilgan tadbirlardan hisoblanadi. Chunki insonlar tadbirlarga ma'naviy hordiq chiqarish uchun, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish uchun, estetik zavqlanish, kayfiyatini ko'tarish va boshqa ijobiy hislatlarni jo qilish uchun keladi. Bu esa uning ertangi kundagi amalga oshiradigan ijobiy ishlariga qiziqishini yanada orttirishga, o'z mehnatidan zavq olishiga, mehnat unumdorligiga erishishiga, oilasi, Vatanni sevishga, ijtimoiy hayotga munosabatini yaxshilik tomonga o'zgartirishiga olib keladi. Tadbirlarni tashkil qilinishining asosiy maqsadi ham ana shunga qaratilgan¹⁾".

¹⁾V.Rustamov. Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolari. Toshkent, 2003.41b

Shunday ekan, tadbirlarni tashkil etish muammolari, uning inson tarbiyasidagi rolini har tomonlama yoritish mazkur malaka ishining asosini tashkil etadi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning dramaturgiyasi shakllari juda xilma-xildir. Davra suhbatlari, uchrashuvlar, tematik kechalar, kulgu kechalari, teatr, spektakllar namoyishi, adabiy-badiiy, musiqiy kompozitsiyalar, yubiley va boshqalar shular jumlasidandir.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari, maktab va kollejlarda, turli tashkilotlarda tadbirlar har xil shakllarda tashkil etiladi. Ma'naviyat xodimlari va san'at hodimlari ushbu tadbirlarni tashkil etishda samarali mehnat qiladilar. O'zbekiston davlati mamlakatda insonlarning yashash shartsharoitlarini yaxshilash, yoshlarga bilim berish, bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish va buning natijasida jamiyat hayotida faol ishtirok etish, oilasi, kasbi, Vatanini sevish kabi ijobiy hislatlarni jo qilishga katta e'tibor qaratmoqda. Shu bois ham jamiyat taraqqiyotiga tegishli bo'lgan barcha sohalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish va yanada takomillashtirish bo'yicha "2017-2021 yillarda mo'ljallangan chora-tadbirlar to'g'risida"gi dasturi² ana shunday ulug' maqsadlarga qaratilgan. Bu qaror aholining, ayniqsa, bolalar va yoshlarning intellektual, estetik va ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun zarur zamonaviy, ijtimoiy-madaniy va ma'naviy-ma'rifiy muassasalar yaratish maqsadida qabul qilingan.

Tadbirlarning tashkil etish asosan madaniyat va aholi dam olish markazlari xodimlariga zimmasiga tushadi.

Tadbirlarining asosiy vazifasi – milliy va dunyo ma'naviyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish va ommalashtirish, o'sib kelayotgan avlodni, zamonaviy yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo'lgan hurmatni uyg'otish va saqlash hisoblanadi. Zotan, xalqlarning o'ziga

²2017 yil 31 maydagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi" Qaroridan.

hosligi va betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy ma'naviyatlar, san'at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an'ana va urfodatlarining o'zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat muhitini qaror toptirish uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ahamiyatini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, tadbirlarda shaxs o'z insoniy fazilatlarini shakllantira boshlaydi, yashirin, betakror, individual hususiyatlari, qobiliyatlarini kashf etadi, ularni o'stiradi va rivojlantirib boradi, jamiyat, hayot bilan muloqotga kirishadi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida bu tadbirlarning o'ziga xosligi shundaki, u insoniyat avlodlarinig mehnati va bilimlarini o'ziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi. Mana shunday ulkan ishlarni amalga oshirishda tadbirlarni mohirona tashkil etish, ya'ni uning dramatik asosi bo'lmish ssenariyni yaratish, sahnalashtirish va ommaga taqdim etish orqali insonlarga ta'sir qilish –hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga aksariyat ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiyaning qo'shimcha vositasi sifatida qaraladi. MMT ta'lim-tarbiyaning qo'shimcha vositasi funksiyasini ham bajarishi bilan birga, ta'limning asosiy shakllari: ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, seminarlar tarkibiga singdirilib, ular bilan uyg'unlashtirilganda ko'proq samaralarga erishiladi. Ayni paytda, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning tarbiyaviy salohiyati va ularni ta'lim jarayoni bilan uyg'unlashtirish metodikasi mamlakatimiz ilm-fanida tadqiq qilinmagan. Shu muammoni hal qilish zarurati mavzuning juda dolzarbligini ko'rsatadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mustaqillik yillarida ushbu muammolarga bag'ishlangan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Faylasuf va sotsiolog olimlardan B.YO'ldashev, M.Bekmurodov, A.Umarov, V.Rustamov, va boshqalar inson komolotining ma'naviy asoslari, milliy g'oya va mafkura, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy mentalitet, millat sha'ni, axloq, mustaqillik va ma'naviyat kabi masalalarni atroflicha tadqiq etganlar.

Sharq mutafakkirlari Firdavsiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Behbudiy, Fitrat kabi olim-u ulamolar ham tadbirlar va uning tashkil etilishi to'g'risida, tadbirlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni va roli haqida turli nuqtai nazar bilan qaraganlar va o'z fikr va mulohazalarini meros qilib qoldirganlar.

Hozirgi kunda O'zbekistonda tadbirlar dramaturgiyasi tarixiga zamonaviy, ilmiy nuqtai nazardan yondashayotgan ustozlardan B.Sayfullayev, V.Rustamov, U. Azim, O. Rizayev, Q. Norqobil, va boshqalar darslik va o'quv qo'llanmalar yaratib, shu sohaning rivojiga hissa qo'shib kelmoqdalar.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar to'g'risidagi adabiyotlar bilan tanishib, tadbirlarni tashkil etishning amaliy jihatlari bilan qiyoslandi va o'rgangan xulosam shu bo'ldiki, yoshlar ma'naviyati, axloqi, tarbiyasiga oid ko'plab tadqiqotlar ichida MMT larning ro'li va o'rni, ularning samaradorligini oshirish omillari hanuzgacha maxsus o'rganilmaganligini guvohi bo'ldim.

Tadqiqotning maqsadi: Oliy o'quv yurtlari talaba yoshlarining yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda MMTlar samaradorligini oshiruvchi omillarni aniqlash, ularning o'ziga xos xususiyatlarini taxlil qilish va ulardan foydalanish metodikasini ishlab chiqishdan iborat. Bundan tashqari, joylarda tashkil etilayotgan tadbir va tomoshalarning tarbiyaviy ahamiyatiga katta e'tibor berish lozimdir. Tadbirlar ssenariysini yaratishda uning badiiyligi, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan manbalarni kiritish, sahnalashtirishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, g'oyaviy talqin masalalariga jiddiy qarash lozimdir. Tadbirlarni to'g'ri tashkil etish, uni mahalliy fakt, xujjat va dalillarga asoslangan holda yoritish, insonlarni bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish, to'g'ri dam olishni o'rganish, ma'naviy ozuqa olish, estetik zavqlanish kabi xususiyatlarni ilmiy jihatdan asoslash ko'zda tutilgan.

Bu jarayonlar tadbirlarni ssenariysini yaratish, ijrochilarni jalb etish, ijodiy guruhlar chiqishlarini ta'minlash, tadbir-ketma-ketligini mantiqiy jihatdan bog'lash kabi ijodiy va tashkiliy ishlarni bajarish asnosida amalga oshiriladi.

Tadqiqotning vazifalari:

✚ O'zbekistonda yangicha ta'lim tizimiga o'tish jarayonida talaba-yoshlarni yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan foydalanishning zarurati, o'rni va ro'lini yoritish;

✚ Tadbirlarning ijtimoiy hayotdan tutgan o'rnini belgilash, uning tarbiyaviy jihatlariga katta e'tibor qaratish;

✚ Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni oliy ta'lim tizimidagi mashg'ulot shakillari: ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, seminarlar bilan uyg'unlashtirish usul va shakllarini aniqlash;

Mutaxassislik fanlarida ma'naviy tadbirlarni tashkil etish, jumladan, tadbirlarni o'tkazishga xos bo'lgan usul va vositalar haqida ma'lumotlar to'plash;

✚ Tadbirlar dramaturgiyasi muammolarini o'rganish;

✚ Talaba yoshlarni tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan foydalanish bo'yicha to'plangan tajribani umumlashtirish;

✚ Insonlarga tadbirlarning mohiyatini tushuntirish, ularni tadbirning faol ishtirokchisiga aylantirish kabilar mazkur bitiruv malakaviy ishning vazifalarini tashkil etadi.

Tadqiqotning obyekti: Madaniyat va aholi dam olish markazlarida, madaniyat va istirohat bog'larida, turli tashkilotlarda, maktab, kollej, litsey hamda oliy o'quv yurtlarining faollar zallarida, sport maydonlarida, bir so'z bilan aytganda, noan'anaviy sahnaviy kengliklarda o'tkaziladigan tadbirlarni tashkil etish, o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan ijodiy va tashkiliy jihatlar;

Tadqiqotning predmeti: Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning dramaturgiyasi (ssenariy, inssenirovka), turli san'at vositalaridan foydalanishning shakil, metod va vositalari.

Talaba-yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali ma'naviy-axloqiy tarbiyalash samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan omillarning harakat qilish mexanizmlari hamda hususiyatlari.

Tadqiqotning metodlari:

- ✚ ilg'or pedagogik tajribani o'rganish;
- ✚ pedagogik kuzatuv;
- ✚ tadbirlarda ishtirok etish va tadbir qatnashchilari hamda tashkilotchilari bilan suhbatlar;
- ✚ savol-javob;

Tadqiqotning metodologik asosi: Jamiyatimizning barcha jabhalarida sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga munosabatda xolislik, xaqqoniylik, tarixiylik, ilmiylik tamoillari bitiruv malakaviy ishning nazariy-metodik asoslarini tashkil etdi. Shuningdek tanlangan mavzuni to'liq va har tomonlama tadqiq etishda barkamol avlodni tarbiyalashda milliylik va umuminsoniy tamoillarga amal qilish mazkur tadqiqotning xolisona bajarish imkonini beradi. Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi va konsepsiya negizini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning qarorlari, farmonlari, asarlari va nutqlari, maqolalarida bayon etilgan nazariy qoidalar, xulosalar muhim o'rin egalladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni tadqiqotning metodologik asosini tashkil etdi. Tadqiqotda yoritilgan masalalar milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash yo'nalishida milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan holda tadqiq etildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- ✚ O'tkazilayotgan tadbirlarda original usullarni qo'llash, tarbiyaviy jihatlarga e'tiborni kuchaytirish orqali insonlarga ma'naviy ta'sir qilish mexanizmini ishlab chiqish;
- ✚ Tadbirlar ssenariysida g'oya paydo bo'lishiga tomoshaning aniq berilgan

shart-sharoiti: uning mavzusi, g'oya va oliy maqsadi, o'tkaziladigan joy, badiiy kuch va material vositalarining mavjudligi, hujjat va dalillar shu joy bilan bog'liq bo'lgan, an'ana va marosimlardan to'laqonli foydalanish nazariyasi ishlab chiqildi;

✚ Tadbirlar dramaturgiyasida kompozitsion tuzilish bo'yicha nazariy ma'lumotlar to'plandi va tahlil etildi;

✚ Tadbirlarni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan muammolar o'rganildi va amaliy yechimlar tavsiya etildi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati:

- Ma'naviy tadbirlar tushunchasiga ta'rif berildi. ma'naviy tadbirlar va tadbirlarni tashkil etish usul va vositalari tadqiq qilindi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar dramaturgiyasi asosiga qurilgan tadbirlarni tashkil etish jarayonida san'atning barcha turlaridan foydalanish orqali tarbiya bilan o'zaro yahtidliyligi ta'minlandi.

Tadqiqot natijasida MMTlarning yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashdagi samaradorligini oshirishga hizmat qiladigan tavsiyalar berildi.

Tadqiqot ishining strukturaviy tuzilishi:

- ✓ -kirish;
- ✓ -asosiy qism (2-bobdan iborat);
- ✓ -xulosa,
- ✓ -glossariy;
- ✓ -foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I.BOB. MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIRLAR DRAMATURGIYASI

TASNIFI

1.1. Ma'naviy tadbirlarni tashkil etishning metodologik (uslubiy) asoslari

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ma'naviyat masalalariga davlatimiz tomonidan jiddiy e'tibor berila boshladi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishda madaniy tadbirlarning roli benihoya kattadir. "Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni - eng avvalo, insonlar uchun tashkil etiladigan, ularning bo'sh vaqtlarini to'ldiradigan, ijodiy, estetik qarashlarini shakllantiradigan, ma'naviy bilimlarini boyitadigan jarayon deb tushunish mumkin. Insonlar ishdan bo'sh paytlarida ma'daniy ehtiyojlarini qondirishlari maqsadida turli ijodiy, ko'ngilochar, san'at vositalari ishtirok etgan jarayonlarda qatnashishni hohlaydilar. Shahar sharoitida teatrlar, turli konsert dasturlari, bog'lar, madaniyat saroylari va boshqa dam olish maskanlariga borib, o'zlarining madaniy ehtiyojlarini qondirishga harakat qiladilar. Qishloq sharoitlarida esa bunday imkoniyatlarni madaniyat uylari, bog'larda amalga oshirish mumkin bo'ladi. Har qanday sharoitda ham mohirona tashkil etilgan tadbirlar insonlarga ozmi-ko'pmi o'zi istagan "ne'matlar"ga ega bo'lish imkonini beradi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "tadbir" - biron ishni, maqsadni amalga oshirish, ro'yobga chiqarish vositasi – shuning uchun puxta o'ylab tuzilgan, ishlab chiqilgan amaliy choralar majmuidir, deyilgan. Ma'naviy tadbirlar to'g'risida shu soha olimlari turli fikr mulohazalarni aytib o'tganlar. U.Qoraboyev bu tushunchani badiiy ommaviy bayram tadbirlari deb, yana boshqalar ma'naviy-ma'rifiy ishlar deb yuritganlar. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar esa bu jarayonlarning barchasini o'zida qamrab oladigan ijodiy jarayondir. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni kengroq ma'noda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ommaviy bayram tadbirlari, konsert dasturlari, tematik kechalar, turli mavzudagi musiqiy, badiiy, publitsistik, xoreografik kompozitsiya va h.k.lar, bog'lar, maydonlarda o'tkaziladigan turli

janrlardagi tadbirlar dramaturgiyasi umumiy nom bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbir tushunchasiga teng bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda ijodiy, uslubiy jihatdan mukammal, puxta tayyorlangan, to'g'ri tashkil etilgan dasturlar ma'naviy tadbir deb nomlanadi.

Har qanday ma'naviy-ma'rifiy tadbir ijodiy va tashkiliy jarayonlarni o'z ichiga oldi.

Ijodiy ishlarga tadbirning ssenariy rejasini tuzish, ssenariysini yozish, sahnalashtirish, badiiy jamoalar bilan ishlash, tadbir o'tadigan joyni bezash kabi ishlar kirsam, tashkiliy ishlarga esa ana shu ijodiy ishlarni amalga oshirish uchun qilinadigan barcha ishlar kiradi. Masalan, badiiy jamoalar bilan ishlash uchun mikrofonlar, texnik jihozlarni tayyorlash kabi vazifalar shular jumlasidandir. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar aholini ma'naviy kamol toptirish, ma'naviy saviyasini oshirish, bilimni o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga qaratilgan ijodiy, tashkiliy jarayondir.

Ma'naviy tadbirning tashkilotchi-rahbari avvalo, o'z oldiga maqsad va vazifalarni to'g'ri qo'yishi zarur. Tadbirni tashkil etish vazifasini olishi bilan rahbar ishni nimadan boshlaydi?

Tadbirni to'g'ri tashkil etishda turli uslub va vositalarning to'g'ri tanlanishi katta ahamiyat kasb etadi"³.

Madaniyat va san'at muassasalari - fuqorolarni ma'naviy kamol toptirish, kishilarning bo'sh vaqtini sarmazmun o'tkazish, ma'naviy boyitish, aholini ma'naviy, ma'rifiy, ijodiy, hordiqiy faoliyatlari uchun shart-sharoitlar, imkoniyat va qulayliklar yaratish, joylarda xalq ma'naviyatini taraqqiy ettirish va rivojlantirish kabi maqsad va vazifalarni o'zida qamrab oladi.

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun bajariladigan har bir ish jarayoni, jumladan, ma'naviy tadbirlarni tayyorlash jarayoni ham, kerakli va ma'lum yo'lyo'riqlarni, usul-uslublarni yoki metodlarni qo'llashni talab qilladi.

³ B.Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. Toshkent, 2016.79b.

Belgilangan tadbirni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qanchalik samarali metodlar topilsa, uni amalga oshirish jarayoni shunchalik oson bo'ladi. Shuning uchun ma'naviy tadbirlar tashkilotchisi metodlar haqidagi ta'limotni bilishi, ularni tanlashni va foydalanish yo'llarini mukammal o'zlashtirish kerak.

Metod grekcha «metodos» so'zidan olingan bo'lib, «bajarish», «bajarish usuli» degan ma'noni bildiradi. «Metod» so'zining zamonaviy ma'nosi ma'lum faoliyatda maqsadga erishish uchun topilgan, bajarilayotgan va amalga oshirilayotgan usul, yo'l-yo'riq demakdir. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ko'p qirrali faoliyat bo'lgani uchun, unda juda ko'plab metodlardan foydalaniladi.⁴

Ma'naviy tadbirlar – bu tarbiyaviy, ma'rifiy, ijodiy va dam olish ishlarining o'ziga xos birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shu sababli ularda, eng avvalo, pedagogikadagi tarbiyaviy ishlarga oid bo'lgan va ma'rifiy (bilim berish, axborot tarqatish) faoliyatga mansub metodlarga murojaat qilmaslikning iloji yo'q. Shuningdek, ularda dam olish (hordiq chiqarish) va ijodiy jarayonni tashkil qilish metodlaridan foydalanilmasa, tadbirlardagi asosiy vazifalarning ba'zilar yo'qolib ketadi

U.Qoraboyev o'zining “Badiiy ommaviy bayramlar” kitobida ushbu soha bo'yicha ish olib borishda quyidagi metodlardan, ya'ni, tarbiyaviy, ta'limiy, xordiq chiqarish va ijodiy jarayonni tashkil qilish, tashkiliy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqligini aytib o'tadi. Ish jarayonida bu metodlar bir-birini to'ldirib, o'zaro bog'lanib ketadi.

Xozirgi kunda olib borilayotgan, tashkil etilayotgan barcha jarayonlar ta'lim va tarbiya asosiga qurilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan dasturlarimizning asosini ham mana shu ikki jarayon asosida tuzilgan deyishimiz mumkin. Sababi, yoshlar tarbiyasi, ma'naviyat masalalari, ta'lim berish kabi vazifalar davlatimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan qaror, farmon va farmoyishlarida o'z aksini topganligi barchamizga ayon. Shu

⁴ U.Қорабоев. Бадий оммавий бағамлар. Тошкент, 1998.676.

bois, ta'lim va tarbiya masalalari davlatimiz siyosatining ustivor vazifalaridan ekanligini barchamiz to'g'ri anglashimiz zarur.

Respublikamizning birinchi Prezidenti I.Karimov "Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil –bu ta'lim –tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir", deb aytganlari aynan mana shu sohaning vazifalarini to'g'ri anglashga undaydi. Shu jihatdan ham tarbiya masalasi barcha masalalardan yuqori turishliklarini anglash qiyin emas. "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi –bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir. Bu haqida fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot -yo mamot, yo najot –yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlarni eslayman"⁵, degan so'zlari ta'lim va tarbiya sohasining o'ta muhimligini yana bir bor ta'kidlaydi. Ma'naviy –ma'rifiy tadbirlarlarni tashkil etishdan asosiy maqsad ham insonlarga to'g'ri tarbiya berishdir. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar- bu, eng avvalo, tarbiyaviy jarayon bo'lgani uchun ularda pedagogikaga oid tarbiyaviy metodlardan foydalanish qonuniydir. Lekin bu ularni to'g'ridan-to'g'ri, ko'rko'rona qo'llash, degan gap emas.

Tadbirlarni tashkil etishda turli metod va vositalardan to'g'ri foydalanish lozim. Masalan, ishontirish metodining asosiy vazifasi auditoriyaga ta'sir ko'rsatishdir. Buning uchun tadbirning mazmunini ishonarli, haqqoniy qilib tuzish kerak. Omma tashkilotchilarning fikriga qo'shila olmasa, berilgan ma'lumotlarga ishonmasa, u holda tadbirning maqsadi amalga oshmaydi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun tadbirda hujjatlar, faktlar, ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari, siyosiy arboblardan va olimlarning fikrlari hamda statistik ma'lumotlardan foydalanish kerak. Ular haqqoniy, mantiqli, ishonarli va qiziqarli shaklda aks ettirilmog'i kerak. Misol uchun, odam savdosiga qarshi kurash mavzusi asosida tayyorlangan kompozitsiyasini tayyorlashdan asosiy maqsad u yerlarga, ya'ni o'zga yurtlarga borib, ko'p pul topishni istagan yoshlarga buning hammasi safsata ekanligiga ishontirish, u yerdagi shart-sharoit va ahvolning naqadar ayanchli ekanligini

⁵ I.Karimov. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. Ma'naviyat, 2008., 39b.

ko'rsatish, o'z yurtining qadriga yetish kabi vazifalarni qo'ygan holda tomoshabinlar e'tiboriga havola etilishi ko'pchilikning to'g'ri hulosa chiqarishiga sabab bo'la oldi deyishimiz mumkin. Shu birgina odam savdosiga qarshi kurash mavzusi atrofida kechadigan tadbirlarni bir necha xil variantlarda tashkil etish mumkin (inssenirovka qilish, xujjatlarni badiiylashtirish, aniq faktlar asosidagi ma'lumotlar asosida kompozitsiyalar tayyorlash va h.k.z.).

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, U.Qoraboyev namuna metodi haqida ham o'z fikr mulohazalarini bayon etib o'tadi. Hozirgi kunda bu metod asosini "Zamonaviy qahramon obrazini yaratish" masalalaridan kelib chiqqan holda yondoshish maqsadga muvofiqdir. Namuna metodi orqali kishilarining eng yaxshi fazilatlari tarannum etiladi. Vatanimizning eng yaxshi o'g'lonlarini va mahalliy sharoitda samarali ish ko'rsatayotgan mehnat ilg'orlarining hayoti va faoliyatini boshqalarga namuna qilib ko'rsatish ma'naviy-ma'rifiy tadbirimizning tarbiyaviy qiymatini oshirib, ommani ulardan o'rnak olishga, halol ishlashga undaydi. Ular mehnatini munosib taqdirlash ham tadbirda foydalanish mumkin bo'lgan usullardan hisoblanda.

Taqdirlash (rag'bat) usuli ham insonlarni mehnatini qadriga yetayotganliklarini, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llanayotganliklarini va buning asnosida yanada ter to'kib halol mehnat qilishga, qilayotgan mehnati natijasiz qolmasliklarini, Vataniga foydasi tegayotganligi va qilayotgan mehnatining samarasi, natijasi o'zi uchun, qolaversa, jamiyat taraqqiyoti uchun ekanligi anglashga undaydi. Undan tashqari, taqdirlash usulining yana bitta afzalligi shundaki, uning atrofida mehnat qilayotganlar ham shu e'tiborlarga erishishga intilib mehnat qiladilar. Ma'rifiy metodlar ham ma'naviy tadbirlarning asosini tashkil etadi, desak yanglishmaymiz. Chunki, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning asosiy vazifalaridan biri ommaga yangi axborot va bilim berishdan iboratdir. Bu jarayonda ham pedagogikadagi ma'rifiy metodlardan ijodiy foydalanish katta samara beradi. Professor M.Bekmurodov o'zining rahbarlik pozitsiyasida bitta g'oyani ilgari suradi. Barcha pedagoglar, ma'naviyat

targ'ibotchilari ilmi, bilimli va ma'rifatli bo'lishlari lozimdir, deydi. Buning uchun nima qilish kerak? M.Bekmurodov o'zi rahbarlik qilayotgan kafedra professor-o'qituvchilarini kitob o'qish majburiyatini qo'yib, ularga aniq muddat berib, savol-javob kechalarni o'tkazish orqali ma'rifatli qilish yo'lidan bordilar. Buning natijasi pedagog kitobni yuzaki emas, kitobning ichiga kirib o'qishga, uning mazmuni va mohiyatini anglab olishga undaydi. Mana shunday usullarni joylarda qo'llash albatta katta samaralar beradi. Tadbirlarda keng qo'llanishi mumkin bo'lgan ma'rifiy metodlar – bu bayon etish va namoyish qilishdir. Bayon etish metodining asosiy maqsadi shundan iboratki, u tadbirning g'oyasi, mazmuni, axborot va faktlarini auditoriyaga jonli so'z orqali bayon qilish shaklida yetkazib beradi. Ommaviy bayram tadbirlari tarkibida ko'pincha shunday faktlar va ma'lumotlar bo'ladiki, ular albatta batafsil tushuntirishni talab qiladi. Xuddi shunday daqiqalarda bayon etish metodi katta yordam beradi. Bu metod yordamida ma'lumotlarning mohiyati ochiladi, xususiyatlari yoritiladi va to'liq bilim beriladi. Bayon qilish metodi, ayniqsa, og'zaki jurnallarda, tematik kechalarda ko'proq qo'llaniladi. Bugungi kunda texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan bir paytda namoyish qilishning turli usullarini qo'llash unchalik katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu usulning yaqqol misoli sifatida J.Mamatqosimov tomonidan sahnalashtirilgan “Qordagi qizg'aldoq” deb nomlangan badiiy-publitsistik kompozitsiyani aytish mumkin. Slaydda tayyorlangan qatag'onlar hayotiga oid xujjatlar asosida tayyorlangan tasvirlar aktyorlar ijrosi bilan uyg'unlashib ketadi va yagona kompozitsiyaga ega bo'ladi. Namoyish qilish metodi tadbir mazmunidagi voqealarning obrazli tasvirini ko'rgazmali shaklda auditoriyaga yetkazishga yordam beradi. Bunda barcha ma'lumotlar obrazli kuzatish (ko'rish) orqali qabul qilinadi. Namoyish qilish metodi, asosan, ta'sirchan vositalar oraqli bajarilib, unda voqealar yoki kecha qahramonlarining hayotiga oid ma'lumotlar hujjatli, real aks ettiriladi. Masalan, portret kechasida ma'lum kishining hayoti va mehnati suratlar, filmlar, hujjatlar orqali ko'rgazmali namoyish qilinadi. Bu esa berilgan

ma'lumotlarni emotsional-obrazli idrok etishga yordam beradi va ular haqidagi taassurotlarni uzoq vaqt esda saqlab qolishga imkon beradi.

Hammamizga ma'lumki, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar kishilarning ishdan bo'sh, dam olish vaqtida ijodiy jarayonga qo'shilishi natijasida vujudga keladi. Eng avvalo, havaskorlar o'zlarining ishdan bo'sh vaqtlarida ijodiy jarayonga tadbir tayyorlashadi va buning natijasida keng ommani hordiq chiqarishga, qolaversa, ularni ham ijodiy faoliyatga tortishadi. Shuning uchun hordiq chiqarish va ijodiy jarayonga qo'shilish metodlarini bir-biridan ajratish qiyin.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish ko'p repetitsiyalar asnosida amalga oshiriladi. Tadbirni tayyorlash uchun havaskorlar tashkilotchi boshchiligida ko'p mashq qilishadi. Bu jarayonni tashkil qilish uchun ham alohida metod, ya'ni mashq qilish metodi kerak. Bu metod boshqa metodlardan shu bilan farq qiladiki, u faqat tadbirni tayyorlash jarayonida qo'llanadi. Shuni unutmaslik kerakki, mashq qilish metodi, asosan, tadbir tayyorlovchi rejjisorning havaskorlar bilan ishlash jarayonida amalga oshiriladi. Biroq bu metod faqat birgina tadbir tayyorlash uchun kerakli harakatlarni va so'zlarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lib qolmaydi, balki har bir mashq jarayonida havaskorlar madaniy tadbirlar sohasiga oid bilimlarni o'zlashtirishi, so'z va harakat mahoratini amaliy o'rganishi, o'z qobiliyatini o'stirishi lozim. Bu boradagi qonun-qoidalarni chuqur anglagan va o'zlashtirgan kishilargina ijodiy faoliyat ko'rsata oladi. Hordiq chiqarish va ijodiy jarayonga qo'shilish metodlari ichida auditoriyani faollashtirish va ommani tadbir qatnashchisiga aylantirish metodi muhim o'rin tutadi. Chunki bu jarayonlarsiz tadbir qatnashuvchilari passiv tomoshabinlarga aylanib qoladi. Buning natijasida ular na yaxshi hordiq chiqarishadi va na ijodiy jarayonga qo'shilishadi. Tadbir auditoriyasini faollashtirish barcha sanab o'tilgan metodlardan samarali foydalanish natijasida ham o'z-o'zidan vujudga kelishi mumkin. Tadbir voqealarini yaxshi bayon etish, diqqatga sazovor ma'lumotlarni namoyish qilish, namunaviy faoliyatlarni aks ettirish, ilg'orlarni ma'naviy taqdirlash, qoloqlarni tanqid qilish va mazmunni ishonarli qilib ko'rsatish kabi holatlarning samarali

bajarilishi ommani soʻzsiz aktivlashtirib yuboradi. Lekin shu bilan birga, tadbirlarda maxsus aktivlashtirish metodi ham qoʻllanishi mumkin. Buning uchun tadbir qatnashchilaridan intervyu olish, ular bilan savol-javob uyushtirish, baʼzilarni soʻzga chiqarib, fikrini bilish, viktorina uyushtirish va boshqa shu kabilarni bajarish mumkin. Baʼzi sahnaviy harakatlarni zal, omma ichiga koʻchirish ham auditoriyani aktivlashtirishga koʻmaklashadi. Shuni unutmaslik kerakki, faqat aktiv auditoriya tadbir qatnashchisiga aylanishi mumkin. Tadbir qatnashchisiga aylantirish metodi – bu oliy va eng samarali metod hisoblanadi.

Mazkur usulni bajarish uchun ham boshqa barcha metodlardan samarali foydalanish bilan birga, maxsus harakatlardan foydalanish koʻzda tutiladi. Masalan, auditoriya ichida ashulalar aytish, ommaviy raqslar tashkil qilish, xalq oyinlaridan foydalanish, umumiy qarorlar qabul qilish va boshqa harakatlar, soʻzsiz, auditoriyani tadbir qatnashchisiga aylantirib yuboradi.

Har qanday tadbirni tashkil etishda rahbardan juda katta mehnat talab qilinadi. Shu oʻrinda aytib oʻtish joizki, tashkiliy ishlar ijodiy ishlar bilan bir xil darajada turadi. Toʻgʻri, ijodiy sharoitlarning ham oʻziga xos ishlash uslublari bor, ammo, mana shu ijodiy jarayonni amalga oshirishning tashkiliy tomonlarini hisobga olish muhimdir. Oddiy misol qilib oladigan boʻlsak, bitta musiqiy nomerni sahnaga olib chiqish uchun ham unga bir qancha tashkiliy ishlarni amalga oshirish kerak boʻladi, masalan, ansambl uchun joy tayyorlash, mikrofon qoʻyish, xonanda va musiqachilar uchun liboslar tanlash va h.k.z. Maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlarni uyushtirishning oʻziga xos xususiyatlari faqat uning oʻziga mansub tashkil qilish metodlarini talab qiladi. Tashkil qilish metodlari deganda, tadbirni vujudga keltirish uchun qoʻllaniladigan usul, uslub va vositalardan foydalanish yoʻllari tushuniladi. Qisqa qilib aytganda, bu metodlar taʼsirchan vositalardan foydalanish usullari bilan koʻproq bogʻliqdir.

Hozirgi kunda oʻtkazilayotgan madaniy tadbirlarda eng faol ishlatiladigani - bu ilyustratsiyalash metodidir. Bu metod - tadbirdagi soʻz mazmuniga (boshlovchilar matni, boshqaruvchilar fikri va boshqalar) va maqsadiga mos

keladigan turli-tuman badiiy va san'at vositalaridan foydalanishdir. Bunda foydalaniladigan vositalarning sintezlashib, bog'lanib ketishi shart emas. Ilyustratsiyalashtirilgan tadbirda asosiy urg'u og'zaki so'zga beriladi. Boshqa badiiy materialliar esa uni kuchaytirish va to'ldirish uchun xizmat qiladi. Muzika, qo'shiq, raqs, she'r, monolog, proza, kinokadrlar va boshqa vositalardan illyustratsiya sifatida foydalaniladi. Ilyustratsiyalashtirish metodini sof ilmiy tadbirlarda ham qo'llash mumkin. (odatda, ilmiy tadbirlar ko'proq ma'ruza shaklida bo'ladi) Masalan, leksiyaning illyustratsiyalashtirish, ya'ni unga konsert nomerlarini yoki kinolardan lavhalar qo'shish natijasida leksiya-konsert yoki kino-leksiya vujudga kelishi mumkin.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda bir usul borki, bu usul tadbirni to'laqonli g'oyaviy jihatdan to'liq yoritilishiga, mavzuni aniq tushunishga, yordam beradi. Bu -teatrlashtirish deb ataladi.

Teatrlashtirish – teatr dramaturgiyasi qonuniyatlariga asoslanib, ma'lum voqea asosida amalga oshiriladi. Bu metod alohida maqsadga qaratilgan, badiiy obrazli tashkil etilgan, teatr qonuniyatlari asosida, dramaturgiya talablariga javob bera oladigan tadbirlarda o'z ifodasini topadi. Bunda tadbir jarayonida qo'llaniladigan barcha g'oyaviy emotsional vositalar hamda og'zaki chiqishlar kompleks tarzda birlashadi va yagona syujet liniyasini vujudga keltiradi. Teatrlashtirilgan tadbirlarning alohida qismlari mexanik tarzda birlashmaydi, balki organik tarzda sintezlashadi. Bu qismlar endi nafaqat tadbir temasi va g'oyasi asosida, balki kompozitsion holda ham birlashadi. Ko'p joylarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tashkilotchilarining tipik xatosi shundan iboratki, ular tadbirlarda, asosan, dramatik lavhalardan hamda boshqa san'at vositalaridan, ashula va raqslardan foydalanib, uni «teatrlashtirilgan shakl» deb nomlashadi. Bu, albatta, teatrlashtirish metodini qo'llash talablaridan biridir.

“Teatrlashtirilgan tadbirlar yagona g'oyaviy-badiiy syujet va kompozitsion tuzilishga ega bo'lishlari kerak. ”Kompozitsion tuzilish” (lotincha “qurmoq”- asar

qismlarining tuzilishi, mantiqiy joylashishi va uning o‘zaro bog‘lanishi, degan ma’noni anglatadi) o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- prolog (voqealarning boshlanish qismi, adabiyotda ekspozitsiya, kirish yoki muqaddima);
- (asardagi tub burilish yasaydigan qismi);
- voqealar rivojlanib borgan sari u kulminatsion nuqtaga chiqadi
- (kulminatsiya- harakat rivojlanishining eng yuqori nuqtasi) ;
- yechim –asarning nihoyasi nima bilan tugaganligini anglatuvchi qism (yechimda xulosa qismi sifatida epilog berilishi mumkin);

A.D.Silin o‘zining “Rejissyorning ochiq maydonlarda va noan’anaviy sahnaviy kengliklarda ishlashi” kitobida, kopozitsion tuzilish prolog, epizodlar qatori va finaldan iborat bo‘ladi, deb ko‘rsatib o‘tgan.

Teatrlashtirilgan tadbirlarga real qahramon obrazi yoki badiiy asarlardan olingan obrazlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Ko‘pgina tadbirlarda boshqaruvchi hayotimizning real vakili sifatida chiqadi. Lekin hanuzgacha teatrlashtirilgan tadbirlarda badiiy yoki tarixiy obrazlar kam uchramoqda. Ulardan foydalanish tadbirning badiiy qimmatini oshiradi.

Teatrlashtirilgan tadbirlarda omma oddiy tomoshabin emas, balki tadbir qatnashchisiga aylanib ketishi kerak. Yuqorida qayd qilingan talablarni hisobga olgan ommaviy shakllarni teatrlashtirilgan tadbirlar deb atash mumkin. Teatrlashtirilgan tadbirni vujudga keltiradigan teatrlashtirish metodi murakkab, ko‘p ishlashni, chuqur ijodiy yondashishni talab qiladigan usuldir. Yengil, oson bajariladigan ishning har doim samarasi kuchli bo‘lavermaydi”⁶.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, illyustratsiyalashtirish metodini ham, tetrlashtirish metodini ham xohlagan shaklga nisbatan ishlatib bo‘lmaydi. Har bir metodning o‘zi talab qiladigan tadbirlari bor. Masalan, illyustratsiyalashtirish metodini katta tadbirlarga nisbatan qo‘llasak, ko‘p narsa yutqaziladi. Leksiya yoki suhbatni tetrlashtirishning hojati bo‘lmasa kerak. Illyustratsiyalashtirish metodidan

⁶ V.Rustamov. Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolari. Toshkent, 2003, 46b.

tashkil qilinishi oson, har kuni o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan shakllarga nisbatan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tetrlashtirish metodini esa shaxsiy-ma’naviy qiymati balandroq bo‘lgan kompleks shakllarda foydalanish zarur. Uni ayniqsa, ommani hayajonlantiradigan, buyuk sanalarga va tadbirlarga bag‘ishlangan tadbirlarda qo‘llash lozim. Bir so‘z bilan aytganda, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish mobaynida usullarni to‘g‘ri tanlash, ulardan oqilona foydalanish – tadbirning to‘laqonligini ta’minlaydi, saviyasini oshirishga xizmat qiladi.

Ma’naviy tadbirlar – ma’naviyat ko‘zgusi

Har qaysi davlat, har qaysi millat, nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va salohiyati bilan, balki birinchi navbatda, o‘zining yuksak ma’naviyati va ma’rifati bilan kuchlidir. O‘zbekiston diyori haqli ravishda dunyo sivilizatsiyasining beshiklaridan biri hisoblanad. Bu yerga Abu Ali ibn-Sino, Al-Xorazmiy, Amir Temur, Imom Buxoriy, Xoja Axror Valiy, Ulug‘bek, Qozizoda Rumi, Sharafiddin al-Yazdiy, Davlatshoh Samarqandiy, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi ko‘plab hazrati insonlar – dunyo xalqlarining ma’naviy, madaniy, estetik hayotiga asos solgan buyuk siymolarning qadamlari tekkan. Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o‘zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar insonning ta’sirisiz ro‘y bermaydi. Buning uchun avvalo, asriy an’analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, ma’naviy-ma’rifiy muhit intilish mafkurasi va qonuniyati jo‘sh urishi lozim. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida va axloq qoidalari asosida tarbiyalash, yosh avlodda hayotga qat’iy ishonch va qarashni, mentalitetimizga yot bo‘lgan zararli ta’sir va oqimlarga qarshi tura olish qobiliyatini rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Mazkur sohadagi muhim vazifalar quyidagilardan iborat:

-yosh avlodni mustaqillik g‘oyalariga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalash, ona yurtiga muhabbat tuyg‘usini, mamlakatimiz manfaatlarini himoya qilishda jasorat va fidokorlik fazilatlarini tarbiyalash borasida tashkiliy, targ‘ibot va

tashviqot, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish;

-ma'naviy-ma'rifiy ishlarining mohiyati va shaklini tizimli, uyg'un bo'lishiga erishish, ularning aniq maqsadga yo'naltirilganligini ta'minlash;

-turli hududlarning o'ziga xos jihatlarini, turli qatlamdagi yoshlarning ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olgan holda nafaqat ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uni hayotga tadbiq etish;

-yosh avlodga ruhiy tayanch bo'lib xizmat qiladigan, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat munosabatini tarbiyalaydigan buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur o'rganish;

-barcha ta'lim-tarbiya muassasalarida, korxonalar va tashkilotlar jamoalaridagi yoshlarning ongi va dunyoqarashi shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan kayfiyat va intilishlarni, madaniy-ruhiy muhitni muntazam o'rganib borish.

-yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasi, siyosiy jarayonlarga ongli munosabatni, ma'naviy-axloqiy sohada turli tashqi va ichki tahdidlarga qarshi mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ijtimoiy loyihalardan foydalanish samarali natijalarga erishishning garovidir.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bularning barchasining negizida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni nihoyatda salmoqlidir.

Madaniy tadbir – bu turmushimizning ma'naviy voqealariga oid, turli shakl va badiiy uslub asosida odamlarning ongi va ko'ngillariga tarbiyaviy, ma'rifiy ta'sir ko'rsatadigan jihatlar tushuniladi. Uning negizida eng muhim insonparvarlik masalalarining yechimiga ijodiy yondashishda harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladigan o'ziga hos, betakror, ijodiy, tashkiliy jarayonlar yotadi. Ma'naviy tadbirlar milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar, asosida vujudga kelgan bo'lib, har bir odamni mehr-shavqatli, mehr-oqibatli bo'lishiga da'vat etadi, yer yuzida barqarorlik, birdamlik va ahillik tabiatini uyg'otadi, xalqlarning madaniyatlarini o'zaro birlashtiradi, boyitadi, insonlarning millati, tili va dinidan qat'iy nazar, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi.

1.2 Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan foydalanishning o'ziga xos hususiyatlari

Ma'naviy tadbirlarning asosiy vazifasi – milliy va dunyo ma'naviyatlarining eng yaxshi namunalarinin keng targ'ib qilish va ommalashtirish, o'sib kelayotgan avlodni, zamonaviy yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo'lgan hurmatni uyg'otish va saqlash hisoblanadi. Zotan, xalqlarning o'ziga hosligi va betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san'at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an'ana va urf-odatlarining o'zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat muhitini qaror toptirish uchun ma'naviy tadbirlarning ahamiyatini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ma'naviy tadbirlarda shaxs o'z insoniy fazilatlarini shakllantira boshlaydi, yashirin, betakror, individual hususiyatlari, qobiliyatlarini kashf etadi, ularni o'stiradi va rivojlantirib boradi, jamiyat, hayot bilan muloqotga kirishadi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida bu tadbirlarning o'ziga hosligi shundaki, u insoniyat avlodlarinig mehnati va bilimlarini o'ziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi.

Ma'naviy tadbirlarning maqsad va vazifalariga ko'ra bir qancha mavzularga asoslangan holda bo'lib o'rganish mumkin: Masalan:

-Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalalariga qaratilgan “Hurlik timsolisan, ona Vatanim!”, “Mustaqillik – oliy ne'mat!”, “Vatan yagona, Vatan muqaddas!”, “Ma'naviyatimiz va uning asoslari”, “Buyuk tariximizni o'rganish – kelajagimizning asosi”, “Til millatning qalbi”, “Yurtimiz ravnaqi - salohiyatli yoshlar qo'lida”, “Urf-odat va an'analарimiz ma'naviyatimiz ko'zgusi”, “Millatlar do'stligi – yurt boyligi”, “Buyuk ajdodlarimizga munosib voris bo'lamiz”, “Milliy an'ana va urf-odatlar”,

“Ma’naviy tarbiya va milliy musiqa” kabi mavzularda tashkil etilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar.

-Yurtdoshlarimizni muqaddas islom dini va falsafasi, aziz avliyolarimizning ibratli hayoti, qutlug‘ qadamjolariga, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan hurmat-ehtirom va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash, jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzi, millatlararo totuvlik, o‘zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy dasturlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan tadbirlar “Millatlararo birodarlik – azaliy odat”, “Yagona oila farzandlarimiz” “Shu aziz vatan barchamizniki”, “Do‘st bilan obod uying”, “Biz yagona oilamiz!”, “O‘zbekiston – umumiy uyimiz!” mavzularida do‘stlik tadbirlari, respublikamiz, shaharlarimizning tarixiy qadamjolari, muqaddas yurtimizning, millatimizning shonu-shavkati bo‘lgan maydonlarimizga ekskursiyalar tashkil etish;

Insonlarning huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilishga, jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirishga qaratilgan ma’naviy tadbirlar “Bosh qomusimizni o‘rganamiz” turkum tadbirlaridan “Konstitusiya va o‘zbek milliy davlatchiligi an‘analari”, “O‘zbekiston – suveren demokratik Respublika”, “Davlat – bu xalq hokimiyati”, “Davlat hududi mustaqillik nishonasi”, “Til – davlat belgisi”, “O‘zbekistonning davlat ramzlari”, “Xalq hokimiyatchiligining asosiy shakllari”, “Demokratiya va inson huquqlari”, “Ijtimoiy adolat va qonunchilik”, “Konstitusiya va qonun ustuvorligi”, “Konstitusiya – huquqning asosiy manbai” kabi mavzularni qamrab olishi mumkin.

Sportga muxabbat, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi “Biz sog‘lom avlodlarmiz”, “Asrimiz pahlavonlari”, “Sog‘lom hayot – sog‘lom kelajak”, “Hamisha sog‘lom bo‘l bolajon”, “Avlodlari sog‘lom yurt qudratli bo‘lur” kabi mavzularda o‘tkazilayotgan sport va san‘at tadbirlari, “Chekish zararli illat”, “Voyaga yetmaganlar sog‘lom turmush tarzi uchun” kabi mavzulardagi aksiyalar, shuningdek, yosh sportchilar ishtirokida turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va sport tomoshalari,, sport ustalari, murabbiylar, fan va san‘at namoyondalari, tibbiyot va huquq-tartibot xodimlari bilan uchrashuvlar o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Respublika miqyosida o'tkazilib kelinayotgan "Ekologiya va xalq salomatligi", ekofestival, "Inson va tabiat", "Tabiat va jamiyat", "Toza muhit - sog'lom avlod garovi" kabi tadbirlar yoshlar va voyaga yetmaganlar ishtirokida tashkil qilinib, ular e'tiborini hozirgi kundagi ekologiya muammolariga tortishga, ona tabiatni asrab-avaylashga qaratilmoqda. "Tabiat manzaralari musavvirlar ijodida", "Gullar olami", "Tabiat – ijodkor", "O'zbekiston tabiati", "Qushlar bizning do'stimiz", "Antiqua o'simliklar dunyosi" kabi mavzularda ko'rgazmalar, "Bog'ning yashil tabiati", "Bog'ning jonli burchagi" mavzularida bog' hududi bo'ylab sayllar tashkil etish;

Bolalar uchun o'tkaziladigan taniqli yozuvchi-shoirilar, qo'shiqchi, teatr artistlari, mo'yqalam sohiblari, bastakorlar, amaliy san'at va milliy hunarmandchiligimiz ustalari bilan o'tkaziladigan uchrashuvlar hamda "She'riyat bo'stoni", "Musika sehri", "Go'zallikka talpingan qalblar", "San'at g'unchalari", "Quvnoqlar davrasi", "Yoshlar ovozi", "Raqs malikalari" kabi mavzulardagi badiiy kechalar, "Yangi avlod", "Kelajak ovozi" kabi festivallar farzandlarimizga estetik tarbiyani singdirish va go'zallik, qolaversa, san'at olamiga bo'lgan muhabbatni yuraklarga jo qilishda alohida ahamiyatga ega. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ma'naviy tadbirlarda asosan og'zaki, ko'rgazmali, texnik, matbuot hamda san'at vositalari qo'llaniladi. Bu kabi vositalarning har biri o'ziga xos usullar, xususiyatlar va shakllarga egadir. Og'zaki vositalar ma'ruzalar, suhbatlar, turli ma'lumot va axborot xabarlarini, savol-javob kechalari tashkil qilib o'tkaziladi. Ko'rgazmali vositalarda esa turli mavzulardagi plakatlar, maxsus tayyorlangan ko'rgazma vositalari, shior va chaqiriqlar, diagramma va ma'lumot ko'rsatkichlaridan, texnik vositalarda esa ovoz kuchaytirish apparatlari, radio, televideniye, kino, video va audio apparatlari, minidisk, fotoapparatlardan foydalanish mumkin. Turli mavzulardagi tadbirlarni tashkil qilib o'tkazishda, yuqorida ko'rsatilib o'tilgan vositalardan tashqari rang-barang shakllar ham qo'llaniladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, o'tkaziladigan tadbirlarning usul va shakllari vaqtlar o'tgan sari zamonaga moslashib yangilanib boraveradi.

Mening diplom ishimga tushgan mavzu tadbirlar dramaturgiyasida ma'naviy-marifiy va tarbiyaviy ishlar talqini bo'lganligi bois, maktab hamda kollejlarda sahnalashtirish uchun mo'ljallangan "Giyohvandlik – umr zavoli" deb nomlangan tadbir ssenariysi va "O'z yo'lingni o'zing tanla" nomli kichik sahna asari misolida mavzuni ochib berishga harakat qildim.

"Giyohvandlik – umr zavoli"

deb nomlangan tadbir ssenariysi

Tadbirda aynan mavzuga dahldor bo'lgan mutahassislar tashrif buyurishadi. Tadbir boshida ular tomonidan mamlakatimizda giyohvandlikka qarshi kurash haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tiladi. Yoshlar tomonidan mutaxascislarga o'zlari qiziqtirgan savollar beriladi.

BOSHLOVCHI: Assalomu alaykum bugungi tadbir ishtirokchilari! "Giyohvandlik – umr zavoli" deb nomlangan bugungi tadbirimizni ochiq deb e'lon qilish uchun so'zni _____ ga beramiz.

Navbatni bir guruh talabalar ishtirokidagi tayorlangan badiiy kompozitsiyani e'tiboringizga havola etamiz.

Talabalar qora kiyimlarda tun holatini o'z harakatlari bilan ifodalab berishadi. Oq kiyimda turganlar yigitga qora kiyimdagi yigit chiqib, unga dori, shprints beradi. Yigit avval olmaydi, qora kiyimdagi uni turli raqs harakatlari bilan ko'ndiradi. Yigit narkomaniya og'ushiga tushib qoladi. Oqibati ko'rsatiladi.

Bu tadbirning prolog qismi hisoblanadi.

Shundan so'ng, yana bir guruh talabalar "DUNYOGA BIR MARTA KELAMIZ" shiori ostidagi dasturini yig'ilganlarga namoish etishadi.

1-talaba: 1999 yilda birinchi Prezidentimizning tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XV - sessiyasida "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi qonun (1999 yil 19 avgust 813 – 1 – sonli)ning qabul qilinishi ham giyohvandlikning oldini olishda muhim huquqiy asos bo'ldi.

2-talaba: BMT Bosh Assambleyasi 1997 yil 7 dekabrda qaratgan qarori bilan 26-iyun kunini “Giyohvandlikka qarshi kurash halqaro kuni” deb belgiladi.

3-talaba: Giyohvandlik - umr zavoli bo‘lib, salomatlikka putur yetkazuvchi, umrni qiskartiruvchi, hayotni zaharlovchi og‘udir.

4-talaba: GIYOHVAND MODDA—bu markaziy asab tizimi – bosh miyaga ta’sir qiluvchi moddadir.

5-talaba: NARKOMANIYA - yunoncha so‘z bo‘lib, narko – karaxtlik, maniya - hohish , intilish ma’nosini anglatadi.

1-talaba: Giyohvand moddalarni 1 ta -shprits bilan 5-6 ta giyohvand tomiriga yuborishi natijasida OIV infeksiyasi bilan zararlanish 80,0% ni tashkil etadi.

Barcha talabalar birgalikda: So‘lom turmush tarzi - saodatga eltuvchi ishonchli yo‘l ekanligini doimo esingizda tuting. Ahir dunyoga bir marta kelamiz.

Kuy va qo‘shiqlar jilosida yaxshi hayot tarzi madh etiladi.

Turli tashkilotlarda o‘tadigan giyohvandlik mavzusidagi tadbirlar o‘sha tadbir ishtirokchilariga giyohvandlikning zararli oqibatlari, uning davosi yo‘qligi, natija o‘lim bilan tugashini haqidagi aniq ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak. Ayniqsa, yoshlar orasida bu mavzuga oid tadbirlarni tashkil etish yoshlarni bu yo‘ldan qaytishlariga, sog‘lom turmush tarzini yaratishga, yaxshi ishlarga qo‘l urishlariga sabab bo‘lishi mumkin.

Yana bir ssenariyni taqdim etmoqchiman. Bu ssenariy ham yoshlar tarbiyasidagi muhim tushunchalarni o‘zida jam qilgan bo‘lib, yoshlarga ibrat ma’nosida, bu yo‘lga kirmaslik, ota-onaning tarbiyasini to‘g‘ri qabul qilishga qaratilgan tadbirlar uchun qo‘llash mumkin.

O‘z yo‘lingni - o‘zing tanla” deb nomlangan kichik sahna asari

Qatnashchilar: Anvar, Javlon, Narkobiznes bilan shug‘illanuvchi shaxs, Azamat, Jamila, Ikrom, Nilufar.

1-sahna

(Voqea poyezd vagoni kupesida o‘tadi)

Maktabni tugatib, Anvar va Javlon Toshkent shahriga o'qishga yo'l olishdi. Poyezda ketayotib, o'zini Azamat deb tanishtirgan o'rta yoshli odam bilan tanishib qolishdi.

Azamat: Obbo'o' senlar-ey, shunaqa qilib o'qishga ketyapmiz denglar.

Anvar: Haa shunday. (g'ururlanib)

Yaxshi, yaxshi. Qayerda turmoqchisizlar endi?

Anvar: uzoq qarindoshlarimiznikida vaqtincha yashab turmoqchimiz. O'qishga kirgach, yotoqxonada turamiz.

Azamat: Haaa, yaxshiku-ya, lekin qarindoshlarnikida (o'ylanib turib) o'zing ularni uzoq qarindosh deyapsan, (birdan ko'zlari chaqnab) ularga ham yuk bo'lmanglar, rozi bo'lsangiz, menda bir taklif bor.

Javlon: qanaqa taklif? (qiziqib)

Azamat: Qanaqa taklif bo'lardi! Istasangiz, men bilan menikida birga yashashingiz mumkin. Bir o'zim turaman.

Anvar: yaxshi bo'lardi (hursand bo'lib)

Javlon: Taklifingiz uchun rahmat. Lekin biz bu taklifni qabul qilolmaymiz. (Anvarga ma'noli qarab qo'yib) ota-onalarimiz bizni qarindoshlarimiz borligi, ularni nazorati ostida bo'lishimizni bilganliklari uchungina poytaxtga yuborishgan. Qolaversa, qarindoahlarimiz uzoq degani mehrdan uzoq, oqibatdan uzoq degani emaskuu. Ular bizni tashrifimiz haqida eshitib, juda quvonishdi, ular bizni kutyapti.

Anvar: (hayratlanib) ha, ha to'g'ri, ular bizni kutishyapti.

Azamat: (istehzoli kulib) mayli, o'zilaring bilasizlar, majburlash yo'q. Lekin har ehtimolga qarshi telefon raqamimni olib olinglar.

Poyezd manzilga yetdi. Ular hayrlashishdi va o'z manzillariga ravona bo'lishdi.

2-sahna

Anvar va Javlon kichik bir honada dars tayorlab o'tirishardi. Shu payt Jamila opa (Javlonning ammasi) ning eri Ikrom uyga keldi. U mast edi. Uyga kirishi bilan, Jamilani so'ka ketdi.

Ikrom: Haa, nima qilib o'tiribsan, uyga ikki o'smir yigitni qamab olib?

Jamila: Voy hudoyim, yana ichdingizmi? (uni gaplariga e'tibor bermaydi tezroq uni o'rniga olib kirishni o'ylaydi. jiyani bu gaplarni eshitishini hohlamaydi)

Ikrom: Nimaaa gapimga javob bermayabsan? Men senga gapirdim. Haaa sizga meni gapim hali yoqmay qoldimi?

Jamila: Adajonisi, keling o'ringizga kirib dam oling. Charchagansiz!

Bu holatni ikki do'st eshik tirqishidan kuzatib turishardi.

Javlon: (jahli chiqib) hayvon! Hali Jamila opamga qilayotgan muomilasini qara.

Anvar: Anaaa, senga aytgandim, Azamat akanikida yashaylik deb. Ko'rdingmi, bizni deb ammangnikida xam halovat yo'qoldi. Ularga yuk bo'lyapmiz.

Javlon: jim bo'l tentak! Ovozingni chiqarma! (tiss ishorasini qilib) bizni eshitib qolishadi.

Ikrom: nima? (o'qirayib) xali sen menga aql o'rgatyapsanmi? (ayolini yuziga tarsaki tushiradi)

Bu holatni ko'rib turgan Javlon o'zini tutib turolmaydi va chiqib pochchasini yuziga musht tushiradi. Ikrom yiqiladi.

Jamila: (tezlikda bo'lib o'tgan bu voqeani anglolmay hayratda qolgan) nima qilib qo'yding? Nega aralashasan? (Javlonga baqiradi)

Javlonni Jamila opani himoya qilgani uchun olgan natijasi Anvarni oldida o'z qarindoshi tomonidan izza qilingani bo'ldi.

Jamila: (jahl ustida) yo'qollaring chiq uyimdan, hammasiga senlar sababchisan o'zi. Qayoqdanam rozi bo'ldim menikida yashashilarga (yig'laydi)

Bu gap ularni nafsoniyatiga tegadi achchiq qilib, uydan chiqib ketishadi.

3-sahna

Azamatning bir xonali kvartirasi. Xonalar tartibsiz. Ichkiliklarning bo'shagan idishlari atrofda dumalab yotardi. Oshxonaning bir burchagida Anvar ichib o'tirardi. Nimadandir siqilardi.

Xonaga Azamat kirib keldi.

Azamat: bo'ldi endi, qo'ysangchi!

Anvar: yoooq men tushunmayapman, nega endi u kirib ketadi-yu men kirolmayman?

Nima ortiq joyi bor uni mendan?

Qishloqqa qanday boraman endi? Qanday bosh ko'tarib yuraman?

(ichadi)

Azamat: (kulimsirab) to'g'ri, uni sendan nima ortiq joyi bor. Nega endi omad senga emas, unga kulib boqishi kerak?

Anvar: (battar asabiylashib yig'laydi) men nomardman, o'zimni do'stimning muvaffaqiyatidan quvonish o'rniga uni g'iybatini qilib o'tiribman.

Azamat: yoooq - yooq bundaymassan, bundaymassan. Sen yuz emas ikki yuz foiz haqsan. Xozir shoshmay tur! (u chiqib ketadi va ko'p vaqt o'tmasdan qo'lida shprist bilan qaytib keladi)

Seni xozir tinchlantirib qo'yaman. Juda asabiysan stresdasan.

Anvar: nima bu? (havotirli ohangda so'raydi)

Azamat: bumi, bu zo'r narsa. Yani tinchlantiruvchi ukol.

Anvar: yoooq kerakmas! Men ukoldan qo'rqaman.

Azamat: eyeye, erkakmisan? Jim bo'l tentak! (ukol qiladi)

Anvar: (yig'laydi) og'ridi-kuu!

Azamat: eyeyeye, o'leye o'g'il bola bo'lmay! (kulib, chiqib ketadi)

Shu payt Javlon o'qishdan kelib qoldi. Do'stining siqilayotganini ko'rib uning ham yuragiz ezilar, lekin unga qanday dalda berishni, nima deb ovutishni bilmas edi.

Azamat: haa kesinlar bo'lajak olim, kelsinlar.

Javlon: Assalomu alaykum yaxshi o'tiribsizlarmi?

Anvar: sarhush (bir qadah ichkilikni ko'taradi)

Javlon: Bu nima qilganing, Anvarъ! (uni oldidan ichkilikni olib qo'ymoqchi bo'ladi)

Anvar: seni ishing bo'lmasin, bor aralashma, kitobingni o'qi.

Javlon: (shishani tortib olib qo'ymoqchi bo'ladi, Anvar bermaydi, ular tortishishadi, shu payt qo'qqisdan Javlonga Anvar musht tushirib yuboradi)

Javlon: (qattiq hayratda) Anvar do'stim, bu nima qilganing?

Anvar: meni do'stim dema! Meni sendek do'stim yo'q!

Javlon: honadan chiqib ketadi.

Azamat: barakkala polvon, mullavachchani popugini pasaytirib qo'yding.

Anvar oshxona oynasidan qo'shni honadonni kuzatishni yoqtirardi.

Azamatning uyiga ko'chib kelgan kuni shu honadonda bir ajoyib qizni ko'rib yoqtirib qolgan edi. Yana uni kutyapti. Har kuni asr vaqtida Nilufar Skripka chalishni mashq qilar edi. Anvarga bu juda yoqar edi.

Shu payt Nilufarni o'zlari yashaydigan kvartirani oldidagi skameykada Javlon bilan kulishib gaplashib o'tirganini ko'rib hayratda qoldi.

Anvar: axir, axir bilardingkuu, (Yig'lamsirab) o'qishga kirganing yetmagandek, yoqtirgan qizimni ham tortib olmoqchimisan?

YO'q, yo'q bunga aslo yo'l qo'ymayman!

(Chiqib ketadi)

4-parda

Yarim tun. Anvarni titroq bosib, qaltiraydi. Uni (narkotikni) humori tuta boshlaydi. O'rnidan zo'rg'a turib, Azamat yotgan honaga kiradi.

Anvar: azamat aka, turing aka. Tinchlantiruvchi ukolizdan yana qilib qo'yamasangiz bo'lmaydi.

Azamat: eyeye, bor uhla. Uyqimni buzma.

Anvar: hozir o'lib qolaman! (baqiradi)

Azamat: uyg'onib, eyeye mullo yigit sizga shahar bedarvozami?

Tekinga hozir mushuk ham oftobga chiqmaydi!

Pulini to‘lab qo‘y, kayfingni sur!

Anvar: (asbiylashadi) meni xozir pulim yo‘q. hammasini berdimku! Bering o‘lib qolaman deyapman sizga. (yalinadi)

Azamat: boshimni qotirma!

Anvar: bermisanmi? (do‘q qiladi)

Azamat: Voooy voyy qo‘rqib ketdim-kuuu! (uni mazah qilib kuladi)

Anvar: Mana senga! (unga pichoq sanchadi)

Azamat: Iplos! (hushidan ketadi)

Anvar: Nima qilib qo‘ydim? (qonni ko‘rib)

(jazava va vahimaga tushadi)

Xonadan yugurib chiqib ketadi.

5-sahna

Sud zali. Barcha yig‘ilgan. Anvarning keksa onasi tinmay ko‘zidan yosh to‘kadi.

Hukm e‘lon qilinadi.

Sudya: Anvar Salimov sizni jinoyatchilik kodeksiningmoddalariga binoan qasddan odam o‘ldirganingiz, va unga yordam ko‘rsatmaganingiz uchun 10 yilga ozodlikdan mahrum qilamiz!

Anvarning onasi: Yoooooq! (baqirib yig‘laydi) bolam seni shuning uchun o‘stirganmidik? Qotil! Meni bolam qotil! Hushidan ketadi!

Bu sahna ko‘rinishini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Ushbu sahna ko‘rinishini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Mavzusi: Asarda qalamga olingan mavzu bugungi kundagi dolzarb mavzular sarasiga kiruvchi giyohvandlik haqida batafsil hikoya qiladi. Yuqorida guvohi bo‘lgan voqeaning asosi real hayotdan olingan. Shu singari voqealarni ko‘p eshitganmiz. Bunday baxtsiz xodisalarning yuzaga kelishiga nima sabab bo‘lyapti? Shu savolga asar orqali javob berishga harakat qildik.

G'oyasi: Asarning asosiy g'oyasi yoshlarni giyohvandlik singari asr vabosining to'riga o'ralib qolishini oldini olishga, Yoshlarni, ota-onalarni ogohlikka chaqirishga qaratilgan. Ota-ona. Ular farzandini yaxshi ta'lim olib, kelajakda katta odam bo'lishini istashadi. Bir olam orzular bilan farzandini begona shaharga yuboradi. Chunki ular ishonishgan. Jamila qaramog'ida, ko'z o'ngida yashaydi deb o'ylashgan. Lekin, ular kutganday bo'lmadi. Ichkilikka mukkasidan ketgan Ikrom ularning orzularini chippakka chiqardi. Jamila esa Ikromni deb jiyanlarini uyidan haydaydi. Ular esa katta shaharda Azamatdan yordam olishga majbur bo'lishadi va uning uyiga ko'chib o'tishadi.

Konfliktlar: Javlonga omad qushi kulib boqib, u o'qishga kirib ketadi. Asrdagi kanfliktlar aynan shu voqeadan keyin boshlanadi. Bu holatdan tabiiyki Anvar qattiq tushkunlikka tushib qoladi. Bunday qulay vaziyatni qo'ldan boy bermaslik uchun Azamat temirni qizig'ida bosadi. Anvarni aldab, tinchlantiruvchi ukol deb, uning tomiriga giyohvand modda yuboradi. O'z-o'zidan giyohvand moddaga qaram bo'lib qolgan Anvar uni humorida o'zi bilmagan holda Azamatni pichoqlab, qotilga aylanadi. SHO'rlik onaning sud zalida o'zining jigarbandini qamoq jazosiga tortilganini va ozodlikdan mahrum bo'lganini ko'tarolmasdan hushidan ketgani pessada yakun bo'ldi.

Kompozitsion tuzilishi (kirish, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim).

Kirish: Asarga kirish voqealari maktab bitiruvchilarining o'zaro suhbatidan boshlanadi. Ular o'zlarining orzu-umidlari haqida bir-birlari bilan fikrlar almashadi.

Tugun: Asarda tugun yigitlarning notanish kimsa bilan tasodifan tanishib qolishi va unga taqdirning qayta ro'baro qilishi bilan boshlanadi. Bu tugunning tugulishiga ota-onaning Jamilaga ishonganligi va bu ishonchning u oqlay olmaganligi natijada yigitlarning ko'chada boshpanasiz qolib ketishi sabab bo'ldi deb baholasak ham bo'ladi.

Voqealar rivoji: Yigitlarning hayotidagi yuz berayotgan qiyinchiliklar voqalarning keskin tus olishiga sabab bo'ldi. Notanish kimsa bilan yuz bergan tasodifiy uchrashuv ularning hayotida haqiqaddan ham tub burulishlar yasab yubordi.

Kuliminatsiya: Asarda kuliminatsiya ikki tutungan do'stning do'stligi tom manoda imtixon qilinishi va bu sinov bir begunoh insonning bu dunyodan bevaqt ko'z yumishiga sabab bo'ldi. Albatta, bu qotillikning yuz berishida Anvarning butunlay qoralash fikridan yiroqman. Hali oq-qorani, yaxshi-yomonni farqlay olmaydigan o'smir yigitning nobop muhitga tushib qolishi, unga singdirilgan yomon illatlar ta'siri ostida butun bir hayotini barbod qilganligini asardagi voqealar orqali guvohi bo'lamiz va uning qismatiga achinamiz.

Yechim: O'z-o'zidan giyohvand moddaga qaram bo'lib qolgan Anvar uni humorida o'zi bilmagan holda Azamatni pichoqlab, qotilga aylanadi. SHO'rlik onaning sud zalida o'zining jigarbandini qamoq jazosiga tortilganini va ozodlikdan mahrum bo'lganini ko'tarolmasdan hushidan ketgani pessada yakun bo'ladi. Ushbu sahna ko'rinishini yozishimdan maqsad, yoshlarni ogohlikka chaqirish, va yuqoridagi mudhish holatlarga tushib, o'z umrini qaramlikka mahkum qilmaslikni oldini olish. Hamisha ogoh bo'lib yashaylik. Chunki ogohlik - bugungi davr talabidir!

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning shakllari xilma-xildir. Ularni tashkil etishda har biriga alohida nuqtai nazar bilan yondoshish muhimdir.

Tantanali kunlar. Tantanali kunlar ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'ziga xos shakli bo'lib, tadbir qatnashchilarida ma'lum bir yo'nalish va mavzu bo'yicha kayfiyat kun davomida hukmronlik qiladi hamda bu kun ularning hayotlari davomida uzoq saqlanib qoladi. Kunlar o'tkazish rejasiga kirgan barcha tadbirlar mavzuga asosan tuzib chiqiladi. Tantanali kunning o'zi alohida ish shakli bo'lsada, tadbirlarga o'xshab, boshqa ko'plab shakl va usullar yig'indisidan tashkil topadi. Masalan: "Bilimlar kuni" ni o'tkazishda ilm-fan namoyondalari bilan uchrashuvlar,

ilmni o'rganish va uning inson hayotida zarurligi haqida suhbatlar, kitoblar ko'rgazmalarini tashkil etish va konsert dasturlarini namoyish qilish kabi.

Ma'naviy kechalar. Kechalar ilm-fan, texnika, madaniyat, san'at yutuqlari, ma'lum bir soha ish tajribalarini ommalashtirish, yosh avlodni vatanparvarlik, do'stlik, estetik va ma'naviy ruhda tarbiyalashda keng qo'llaniladigan shakllardan hisoblanadi.

Kechalarning o'tkazish rejasi quyidagi shakl va usullarni qamrab oladi:

1. Tantanali qism: tashrif buyurgan mutaxassislarning so'zga chiqishlari, mavzu yuzasidan ma'ruza va suhbatlar.

2. Badiiy qism: konsert dasturlari, spektakl va turli tomoshalar.

3. Ommaviy qism: turli xil ommaviy, harakatli va sport o'yinlari, viktorinalar, asfaltga rasm chizish, musobaqa, ko'rik-tanlov va boshqalar.

Kechalarning quyidagi turlari mavjud:

Mavzuli kechalar – biror bir mavzu bo'yicha tayyorlanib o'tkaziladigan kechalar.

Xayriya kechalari – mehr-muruvvat va turli xil xayriyalar topshirish maqsadida uyushtiriladigan tadbir.

E'zoz kechalari – el-yurt, mehnat, ta'lim muassasalarida o'z mehnati yoki ijodi bilan hurmatga sazovor bo'lgan insonlarni e'zozlash.

Xotira kechalari – xalqimiz hurmatiga sazovor bo'lib o'z faoliyatida ilm-fan, madaniyat, san'at kabi sohalar bo'yicha muvaffaqiyatlarga erishgan taniqli insonlar xotirasiga bag'ishlab o'tkaziladi.

Uchrashuv kechalari – el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan taniqli insonlar, adabiyot, san'at namoyandalari, huquq tartibot va tibbiyot xodimlari, turli mukofotlar sovrindorlari, sport ustalari bilan uchrashuv tadbirlari.

Badiiy-musiqiy kechalar – biror-bir tanlab olingan mavzuni badiiy chiqishlar, sahna ko'rinishlari, musiqa, qo'shiq, raqs va she'riyat kabilar ishtirokida yoritib berish.

Askiya va kulgu kechalari – taniqli qiziqchilar, askiyachilar va hajvchilar ishtirokida o‘tkaziladigan kechalar.

Harbiy xizmatga kuzatish va kutib olish kechalari – harbiy komissariyat va mahallalar bilan hamkorlikda o‘tkaziladi.

Yubiley kechalari – yurtimizdan yetishib chiqqan taniqli insonlar, el-yurt hurmatiga sazovor bo‘lgan kishilar, shuningdek, o‘zining bilim va ijodiy yutuqlari bilan shuhrat qozongan yoshlarimizning yubileylarini o‘tkazish, mamlakatlar, shahar va qishloqlar, turli tashkilot va muassasalarning vujudga kelgan va tashkil qilingan yillarini nishonlash.

Savol-javob kechalari – ma’lum bir mavzuda qatnashchilarni qiziqtirgan savollarga mutaxassislar tomonidan javob berish va turli xil muloqot kechalari.

Festival va ko‘rik-tanlovlar - badiiy ijodiyot, ayniqsa bolalar va yoshlarda bo‘lgan ijod va mahoratni ommalashtirishda alohida o‘rin tutuvchi ish shaklidir. Ma’lumki yurtimizda faoliyat ko‘rsatib kelayotgan madaniyat, san’at va xalq ta’limi muassasalarida millionlab bolalar ijodiyotning turli xil yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z iqtidorlarini namoyon qilib bormoqdalar. Ularning ijodiy faoliyatiga keng yo‘l ochish, yaqindan yordam ko‘rsatish, yosh iste’dodlarni aniqlash va elga tanitish, ijodiy ishlarini davom ettirish uchun imkoniyat yaratish, ijodiyot maskanlarini texnik va musiqa vositalari, rang-barang liboslar bilan ta’minlash ham zaruratdir. So‘nggi yillarda yurtimizda bolalar havaskorligi rivojlanib, o‘z saflarini kengaytirgan holda ijodiyotning texnika, dizayn, kompyuter saytlari grafikasi kabi yangidan-yangi turlari bilan boyib bormoqdalar. Ayniqsa, milliyamaliy san’atimizning ko‘plab yo‘nalishlari bo‘yicha ijod qilayotgan yoshlarning safi kengaymoqda.

Konsert va spektakllar. Mazmun va g‘oyaviy tomondan yetuk, yoshlar va bolalar muammolarini hal qilishda ko‘maklashuvchi, ularni vatanga muhabbat, insonlarga mehr-muruvvatli bo‘lishga chorlovchi spektakllar, yuksak darajada ijro etilgan bolalar badiiy jamoalarining konsert dasturlari insonlarning dam olishini tashkil qilish, ularda estetik saviyani o‘stirishda va san’atning ko‘plab yo‘nalishlari

bo'yicha qiziqishlarini orttirishda alohida o'rin egallaydi. Bolalar badiiy jamoalarining konsert dasturlari va ular uchun sahnalashtirilgan spektakllarni muntazam ravishda ko'rib borgan bolalarda ushbu san'at turlariga bo'lgan qiziqish o'sib, o'zlarida ham qo'shiq aytish, raqsga tushish, musiqa asboblarida kuy ijro etish yoki biror-bir bolalar spektaklida o'zi sevgan timsolni yaratish ishtiyoqi paydo bo'ladi. Bu havas va ishtiyoq ularni turli badiiy havaskorlik to'garaklariga qatnashishga yetaklaydi. Maqsad va ma'nosi, ijro uslublari milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizga zid bo'lgan shovqin-suronli qo'shiq va raqslar nafaqat ijrochi yoshlarga, balki ularni tomosha qilayotgan bolalarga, hattoki katta yoshdagi kishilarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadbir va konsert dasturlarimizda ona vatanni, xalqlar do'stligi, milliy o'zligimiz, el-yurt tinchligi, azaliy qadriyatlarimizni madh etuvchi hamda ulug'lovchi qo'shiqlarga keng yo'l berilishi lozim. Ayniqsa xalq ijodiyoti asosidagi folklor qo'shiqlarimiz, milliy raqslarimizning ijrosi, farzandlarimizda azaliy qadriyatlarimizga hurmat hamda milliy o'zligimizga bo'lgan e'zozni kuchaytiradi. Yurtimiz ko'p millatli xalq bo'lgani uchun ularning san'atlari ham rangbarang. Milliy madaniyat markazlarining badiiy jamoalari tomonidan ijro etilgan milliy qo'shiq va raqslar esa har qanday insonda o'sha millatga bo'lgan qiziqishni o'stiradi. Konsert dasturlarimizdan ularga imkoniyat yaratib berishimiz o'sha millatga bo'lgan hurmatimizni anglatibgina qolmay, dasturlarimizni rang-barang va qiziqarli o'tishiga omil bo'ladi.

Ma'ruza va suhbatlar. Yoshlar bilan o'tkaziladigan og'zaki suhbatlar o'z xususiyatlari bilan ajralib turadi. Suhbat o'tkazayotgan ma'ruzachi o'z tinglovchilari bilan uzluksiz bog'lanib, yaqin munosabatda bo'ladi. Tinglovchilarning yoshlari va qiziqishlariga qarab, zarur masalalarni muhokama qilishda ularni ham bevosita jalb etadi. Ma'ruzachi o'zi bayon etayotgan mavzuni ta'sirchan va tushunarli bo'lishi uchun harakat qiladi. Tarbiyaviy, ilmiy, ma'naviy - ma'rifiy, huquqiy, tibbiy, ekologiya kabi yo'nalishlar bo'yicha suhbat, savol-javoblar bolalarning bilim darajasi, dunyoqarashi va turli sohalar bo'yicha savodini

oshirishda o'z maxsulini bermay qolmaydi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy loyihalar, ma'naviy – ma'rifiy tadbirlar yoshlarimizning jamiyatdagi o'z o'rnini aniqlab olishiga va o'ziga munosib o'rin topishiga, o'z manfaat va maqsad-muddaolarini shakllantirishiga hamda ongli, mustaqil pozitsiyaga ega fuqarolar bo'lib voyaga yetishiga ijobiy turtki bo'ladi. Ixtiyoriy, o'zining faolligidan kelib chiqib bunday jarayonlarda ishtirok etish har bir yosh yigit-qizga o'z qobiliyat va salohiyatlarini to'la namoyish etish bilan birga, jamiyatga ijobiy ta'sir etish imkonini ham yaratadi. Jamiyatning demokratlashuv darajasi nodavlat notijorat tashkilotlarning soni bilan belgilanmaydi va aksincha, ularning samarali faoliyatigina yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishga, jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga va ularda fuqarolik jamiyati ko'nikmalari hosil bo'lishiga xizmat qilishi mumkin.

Ushbu mavzudan ma'lum bo'lib turibdiki, O'zbekistonda madaniy bayram tadbirlari muntazam ravishda davlat darajasida tashkil etilib, insonlarga ma'naviy ozuqa berish, ularni ma'rifat bilan qurollantirish, bo'sh vaqtlarni tog'ri tashkil etish kabi muhim vazifalarni bajarib kelinayotganligidan dalolat bermoqda.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar nafaqat keng masshtabda, balki tor doira atrofida ham tashkil etilishi mumkin. Masalan, yotoqxonada istiqomat qiluvchi "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil qilish va boshqarish" bo'limi talaba qizlari bilan "Qizlar odobi bilan go'zal" mavzusida davra suhbatini tashkil etish mumkin. Ushbu bo'limda 7 ta yoki ko'pi bilan 10 ta talaba qiz yotoqxonada (TTJ) da istiqomat qilishi mumkin. Ammo, tadbirlarni tashkil etishda uning tor yoki keng masshtabda tashkil etilishi muhim emas. Muhimi, insonlarga o'zlari uchun kerakli ma'lumotni olishlari, tadbirdan to'g'ri xulosa chiqarishlari, vaqtini foydali mashg'ulotlarga sarf qilishlari va boshqa ijobiy, tarbiyaviy, ta'limiy jarayonlarda faol ishtiroki, ertangi kelajak uchun qayg'urishlari, Vatanni sevish, mustaqillikni qadriga yetish, ota-onaga nisbatan mehr-muruvvatli bo'lish, ustozlarni, yon atrofdagilarga hurmatda bo'lish kabi fazilatlarini qalbiga joylashtirishdir.

II BOB. Aholini ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda ma'naviy ma'rifiy tadbirlarning o'rni

2.1. Zamonaviy ma'naviy-marifiy tadbir tadbirlari dramaturgiyasi muammolari

Teatr san'atining asosini pyesa tashkil qilsa, tadbir tadbirlari asosini ssenariy tashkil qiladi. Ssenariy - italyancha «Ssenario» soʻzidan olingan boʻlib, asar tuzilmasi maʼnosini anglatadi. Ssenariy - mahalliy dalillarga asoslanib yozilgan adabiy-dramatik asardir.

Dramaturg, soha pedagogi Haydar Muhammad “ssenariy” tushunchasiga quyidagicha taʼrif beradi: “Ssenariynavislik – yozuvchilikdir. Ssenariy – italyancha soʻz boʻlib, kinoda, televideniya, teatrlarda qoʻyiladigan pyesalar ommaviy tomoshalar dasturi, rejasi, syujet va sxemasi, kirish payti, chiqish vaziyatidir. Ssenariynavislik - “Ssenariy” soʻziga forscha “Navisanda” - yozuvchi, adib maʼnosidan “navis” olinib, “Ssenariynavis” atamasi yaratilgan va joriy qilingan”⁷.

Ssenariy tadbir mazmunini adabiy tasvirlash boʻlib, bunda jiddiy ketmaketlik asosida harakat elementlari boʻlmish mavzu va gʻoya, bir boʻlakdan ikkinchisiga oʻtish, bloklar, bezaklar, matnlar toʻliq koʻrsatiladi.

Yuqorida aytib oʻtganimizdek, tadbirlarni tashkil etish bu asosan ijodiy va tashkiliy jarayonlarni qamrab oladi. Tadbir tadbirlarini tashkil etish asosan, ikki qismdan iborat boʻladi:

1. Dramaturgiya (ssenariy) asarini yaratish.
2. Yaratilgan asarni sahnalashtirish (asar rejissurani amalga oshirish).

Tadbirni oʻtkazishda tashkiliy guruh tuzilib, unga rahbar tayinlanadi. Rahbar tadbirning yuqori saviyada oʻtishi uchun shu soha mutaxassislari: mahalliy dramaturglarni, rejissyorlarni, baletmeyster hamda madaniyat va sanʼat muassasasi ijodiy xodimlarini jalb etadi.

⁷ X.Muhammad. Ssenariynavislik mahorati.Toshkent, 2002. 16b.

Maxsus bir tadbir uchun eng avvalo mas'ul shaxslar-ssenariy muallifi va rejissyor kelishgan holda, umumiy reja asosida har bir kishiga taalluqli ishlarning rejalarini, kundalik ish faoliyatini aniqlaydi. Tashkiliy guruh o'z o'rnida bo'lg'usi teatlashtirilgan ommaviy tadbirning g'oyasi, maqsadi, ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda uning dramaturgiyasi (ssenariysi) ni yaratadi. Ommaviy tadbirlar rejissurasi sohasida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog, taniqli rejissyor F.E.Ahmedov "Ommaviy tadbirlar rejissurasi asoslari" darsligida ssenariyning quyidagi turlarini ta'kidlab o'tadi:

“1. Kino ssenariy:

- a) badiiy filmlar ssenariysi;
- b) hujjatli filmlar ssenariysi;
- v) ilmiy-ommabop filmlar ssenariysi;
- g) qo'g'irchoq va multfilmlar ssenariysi.

2. Televizion ssenariylar:

- a) adabiy-badiiy ko'rsatuvlar ssenariysi;
- b) publitsistik - axborot ko'rsatuvlar ssenariysi;
- v) ma'naviy - ma'rifiy ko'rsatuvlar ssenariysi;
- g) ijtimoiy-siyosiy ko'rsatuvlar ssenariysi;
- d) o'yin-ko'ngil ochar ko'rsatuvlar ssenariysi;
- e) televizion filmlar ssenariysi;
- j) musiqiy ko'rsatuvlar ssenariysi va h.k.

3. Radioeshittirishlar ssenariysi:

- a) ijtimoiy-siyosiy eshittirishlar ssenariysi;
- b) adabiy - badiiy eshittirishlar ssenariysi;
- v) publitsistik-axborot eshittirishlar ssenariysi;
- g) musiqiy eshittirishlar ssenariysi;
- d) ma'naviy - ma'rifiy eshittirishlar ssenariysi;
- e) o'yin-ko'ngil ochar eshittirishlar ssenariysi va h.k.

4. Sirk tomoshalari ssenariysi

5. Ommaviy tadbir va tomoshalar ssenariysi”⁸

Ssenariy - bu bo‘lg‘usi tadbirni tayyorlash uchun asosiy badiiy manbadir. Ssenariyda tadbirning g‘oyasi, oliy maqsadi, kompozitsion tuzilishi aks ettiriladi. Shuningdek, ssenariyda tadbir o‘tkaziladigan joy (sahna, maydon) ning bezatilishi, qatnashchilar so‘zlarining matnlari, badiiy va hujjatli materiallar, badiiy fon va fon guruhi tasviri, chiroqlar, sahnalashtirish rejasi va rejissyorlik tahlili ham ko‘rsatilib o‘tiladi. Ssenariyning puxta bo‘lishi bo‘lajak tadbirning eng asosiy yutuqlaridan biridir. Ssenariyning bo‘sh yozilishi esa tadbirning mexanik qismlar umumlashmasiga, yagona syujetning buzilishiga, g‘oyaviy mazmunning to‘la yoritilmasligiga olib keladi. Shuning uchun ijodiy guruh a‘zolari aynan shu kasbning mutaxassislari bo‘lishi hamda ijodiy guruhda ahillik talab qiladi.

Teatrlashtirilgan ommaviy tadbirlarni tayyorlash jarayonida ssenariy yozish uchun ijodkor shaxslar, shoir yoki yozuvchilar taklif qilinadi. U rejissyor bilan ijodiy hamkorlikda ssenariy yaratadi. Lekin, ba‘zi tadbirlarimizda ayniqsa chekka tuman va qishloqlarimizda o‘tkaziladigan tadbirlarda mazkur hududdagi madaniyat uyi rahbari yoki maxsus mutaxassisning bir o‘zi shug‘ullanadi. Bunday holatda u ham tadbir ssenariysini yozadi, ham uni sahnalashtiradi. Ba‘zi hollarda bu ijobiy, ba‘zi xollarda salbiy natija beradi. Tadbirshunos olim, professor U.X.Qoraboyev bu xususida “Badiiy ommaviy tadbirlar” kitobida shunday yozadi: “Ssenariy yozish bilan kim shug‘ullanmasin, u quyidagi talablarga javob bermog‘i lozim:

a) ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy hayotni, mahalliy aholi mehnati va turmushini chuqur tushuna oladigan hamda uni to‘g‘ri tahlil qila oladigan shaxs bo‘lmog‘i;

b) adabiyot va dramaturgiya sohasida bilimga ega bo‘lgan, ulardan samarali foydalana oladigan kishi bo‘lishi;

v) hayotiy materiallarni, hujjatli dalillarni yig‘a oladigan, ularni adabiy-badiiy shaklda bayon qila biladigan ijodkor bo‘lmog‘i lozim”. Ssenariychilik mahorati asosan uchta tamoyilga tayanadi, ya‘ni ijodiy kuzatishning shakllanishi (ssenariy muallifi uchun juda ham kerak bo‘lgan hayotiy materiallarni topib, ajrata

⁸ F.Ahmedov. “Ommaviy tadbirlar rejissurasi asoslari”. 2004.

olish), dramatik fikr qilishni rivojlantirish – (ssenariy ustida ishlashda zarur bo‘lgan dramaning umumiy nazariyasiga rioya qilgan holda syujetlar ketma-ketligi va tadbirning kompozitsion tuzilishini to‘g‘ri belgilash), ijodiy tasavvur va obrazli hal etish.

“Keyingi paytlarda keng miqyosda nishonlanayotgan tadbirlarda fonogrammalarni montaj qilish asosida bir-biriga bog‘lashga harakat qilinyapti. Nomerlar yoki epizodlarni bog‘lash vositasi bo‘lmish “g‘oyaviy ko‘prik”ni to‘g‘ri belgilash - tadbirdagi ortiqcha pauzalarning oldini oladi, o‘rnini to‘ldiradi, shuning bilan birga sahna jihozlari almashtirish yoki keyingi nomerga tayyorlanib olish imkoniyatini beradi, eng asosiysi esa tomoshabinni tadbir g‘oyasidan fikrini “uzilib” qolishidan saqlaydi.

Ssenaristlar yurtimizda bo‘layotgan chuqur o‘zgarishlarni, O‘zbekiston kelajagi buyuk ekanligiga ishonish, Vatanni sevish, o‘z ishiga, Vataniga, oilasiga mehr-oqibatli bo‘lish, mamlakatning rivojlanishida yoshlarning o‘rnini belgilash, qariyalarga hurmat- e‘tiborda bo‘lish kabi xususiyatlarni turli badiiy vositalar orqali o‘z ssenariylariga jo qilib, tomoshabinlar e‘tiboriga havola etishga intilmoqdalar va buning uddasidan ham chiqmoqdalar. Ular sahnalashtirgan tadbir va tomoshalari orqali O‘zbekiston timsolini ko‘klarga ko‘tarib, uning ravnaqiga katta hissa qo‘shmoqdalar”⁹.

Yuqorida qayd etganimizdek, spektakl yaratilishida asosiy manba pyesa hisoblanadi yoki boshqacha qilib aytganda, spektaklning dramatik asosi pyesadir.

Rejissyor spektaklni sahnalashtirishda tayyor manba – pyesaga murojaat qiladi va sahnalashtirish jarayonlarini boshlaydi. Bu bilan spektakl sahnalashtirish juda oson ekan, degan fikrdan yiroqdamiz, zero spektaklni sahnalashtirishning o‘ziga xos murakkab jihatlari bor. Ommaviy tadbir va tomoshalarni sahnalashtirishda esa tayyor dramatik manba yo‘q, o‘tkaziladigan joy an’anaviy emas, unda chiroqlar, dekoratsiyalar, xullas, hech qanday sahna jihozlari-yu, anjomlari yo‘q.

⁹ V.Rustamov. Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolari. Toshkent, 2003.436.

Faqat rejissyorning yuqori tashkilotlardan yoki rahbarlikdan shu tadbirni o‘tkazish to‘g‘risidagi buyurtmasi bor, xolos.

Rejissyor esa bu “buyurtma” ni san’at darajasiga ko‘tarib, yaxlit bir “spektakl” shakliga keltirishi zarur bo‘ladi. Nega endi spektakl shaklida, degan o‘rinli savol tug‘iladi. Spektakl bo‘lishi uchun uning mavzusi, g‘oyasi, janri, qarama-qarshiliklar, voqealar qatori, kompozitsion tuzilishi (prolog, tugun, qarama-qarshilik, yechim), oliy maqsadi, xullas, dramaturgiyaning barcha komponentlari ishtirokini ta‘minlash lozim.

Tadbirlarni tashkil etishdagi eng qiyin jarayon uni yagona mavzu chizig‘iga yo‘naltirishdir. Shu mavzuga mos manbalar izlash, sahna, ya‘ni, tadbir o‘tadigan joyni jihozlash, ishtirokchilarni to‘plash, vazifalarni tushuntirish va repetitsiyani boshlashdan oldin ssenariy rejissyorning qo‘lida bo‘lishi shart.

Ssenariyning badiiy jihatdan mukammalligi, uning originalligiga erishish – o‘tkaziladigan tadbir tadbirlarining yuqori saviyada o‘tishiga kafolatdir.

Rejissyor va ssenaristning izlanuvchanligi tadbir yoki tomoshaning tempo ritmini saqlab turishda ham muhim ro‘l o‘ynaydi.

Sahnaning dramatik asosi bo‘lmish pyesa, ssenariy yoki inssenirovkalarning sahna yuzini ko‘rishida rejissyorning ijodiy guruh bilan olib borgan faoliyati asarning sahnada qancha umr ko‘rishini belgilaydi. Sahnada tayyor bo‘lgan mahsulotni o‘simlik yoki niholga o‘xshatish mumkin. O‘simlikni yerga eksang, u yerning tafti bilan ko‘karadi. Ammo unga suv, o‘g‘itlar va boshqa minerallar vaqtida berilmasa yoki parvarish qilinmasa nihol nobud bo‘lishi mumkin. San’atda ham xuddi shunday. Dramaturgning asarini olib kelib uning quruq matnini ijro qilib bergani bilan u spektakl yoki tomosha bo‘lib qolmaydi. Unga turli badiiy, ifodaviy va ta’sirchan vositalarni o‘ylab topish va qo‘llashi lozim. Ko‘rinib turibdiki, ssenariy muallifi rejissyor bilan ijodiy hamkorlikda hayotiy va mahalliy materiallardan foydalanib, badiiyat qonuniyatlari asosida, o‘z g‘oyasiga, mazmuniga ega bo‘lgan yangi asarni yarata oladigan ijodkor bo‘lmog‘i lozim. Muallif puxta ssenariy yaratish va uni tashkiliy guruhga o‘z vaqtida topshirish

uchun ish jarayonini rejalashtirish lozim. Ssenariy yaratishda bo‘lajak tadbirlarning g‘oyaviy - mavzu asosini chuqur o‘ylamoq lozim. Eng muhimi shundaki, ssenariy asosida muhim ijtimoiy va mahalliy aholining hayotiga yaqin bo‘lgan qiziqarli mavzu yotishi kerak. Ssenariyning ta’sirchanligini oshirish uchun maxsus hujjatlardan: buyruqlar, nizomlar, xatlar, kundaliklar, shaxsiy, oilaviy albomlardan, fotohujjatlar, davlat va shaxsiy arxiv materiallaridan foydalanish mumkin.

2.2 Tadbirlar dramaturgiyasining tarbiyaviy ahamiyati va uni targ‘ib qilishda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning o‘rni

Bugungi kunda tadbir tadbirlarining zaif tomoni bu dramaturgiyadir. Ommaviy teatrga, dramaturgiyaning umumiy nazariyasini chuqur fikr qilmay, mexanik ravishda ko‘chirib bo‘lmaydi. Har bir tadbirning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda yondoshilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarini tashkil etishda dramatik kompozitsiya elementlarining ahamiyati

Dramaturgik tahlilning murakkabligi shundaki, yaxlit holda mavjud bo‘lgan jarayonni, elementlari bo‘yicha bo‘lib, ko‘rib chiqishiga to‘g‘ri keladi. Yakunlangan asar strukturasi o‘zgartirib bo‘lmaslik - asar badiiyligining belgisidir. Mukammal dramaturgik asar shunday qurilgan bo‘lishi kerakki, undagi qayta qurishlar, ba’zi qismlarning olib tashlanishi yoki qo‘shilishi, o‘zgarishlar – she’riyatdagi kabi, yaxshi she’rdagi qofiya yoki so‘zni o‘zgartirib bo‘lmagandek, asarga zarar qilmasligi lozim.

Dramaturgik asar yorqin belgilangan birlikka ega bo‘lishi lozim. Bu umum qabul qilingan xolatni aniqlash uchun nimaning birligi ko‘zda tutilayotganini o‘zimiz uchun bilib olishimiz lozim. Jahon dramaturgiyasining ko‘p asrlik tajribasi, asarning badiiy bir butunligini saqlab qolish uchun, namoyish etilayotgan voqeada vaqt va joy birligiga, albatta amal qilish shart emasligini ko‘rsatdi. Ammo xatti-harakat birligi juda ham zarurdir.

Harakat pyesa rivojining konflikti bo‘lib, harakat birligiga rioya qilish, tasvirlanayotgan predmetning bir butunligiga rioya qilishdir. Albatta, harakat

birligini buzish, tasvirlanayotgan predmetni o'zgartirishga yoki to'laqonli tasvirlyay olmaslikka olib keladi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, dramaturgik asardagi harakat – asosiy konflikt yo'nalishining rivoji bo'lib, qahramonlar munosabatining o'sishidir. «Xatti-harakat» va «harakat» tushunchalarini bir-biriga aralashtirib yubormaslik kerak. Qahramonlarning ahamiyatsiz qiliqlari, xatto joylarini o'zgartirishlari harakatga daxldor bo'ladi.

Masalan, stol atrofida tinch o'tirib, otasidan qolgan merosni qanday bo'lishni tinch muhokama qilayotgan aka-uka suhbat, ularning o'zaro munosabat harakati, qarama-karshilikni rivojlantiradi va h.k. Ular o'rtasida yuzaga kelgan mushtlashish jarayoni – ular munosabatining harakat jarayonidir. Qahramonlar bir-birining orqasidan stol atrofida qancha yugurmasin, qahramonlar joylarida behuda yugurib, harakatning to'xtash jarayoni yuz beradi. Stolga qaytib, masalani tinch yo'l bilan hal etish, ular munosabatining harakat momenti bo'lib, qahramonlar harakat qilmayotgan bo'lsalar ham, harakatning davomiga aylanadi. Dramaturgik kompozitsiya elementlari, pyesadagi konflikt harakati – bir butun harakatni tashkil qiladi.

Har qanday pyesaning asosida, prinsipial, barcha hollarda umumiy bo'lgan kompozitsiya tuzilishi yotadi. Kurashning boshlanishi, kurash yo'nalishi, kurashning natijasi. Hegel bu narsaga katta e'tibor qaratgan. Shuning uchun dramaturgiyaning bu tuzilishini «Hegel uchligi» deb atash qabul qilingan. Shunga qaramasdan har bir pyesa o'zining mazmun jihatdan, aniq kompozitsiya qurilishiga ega bo'lishi lozim. Proporsiyalar nuqtai nazaridan pyesa qurilishidagi bo'laklar munosabatlari variantlarining nisbati chegarasiz bo'lib o'zining individual xususiyatiga ega bo'ladi. Shunday bo'lishiga qaramay dramaturgik kompozitsiya va uning elementlari bir tipi bo'lib, ularning strukturasi va asosi umumiydir, boshlanishsiz yakun bo'lmaganidek, boshidan oxiriga qarab rivojlanmaydigan, boshlanishi bilan tugaydigan asarning bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun biz

dramaturgik kompozitsiyaning teatrlashtirilgan tadbir va tomosha borasidagi asosiy elementlari va bajarish funksiyalarini diqqat bilan ko‘rib chiqishimiz lozim.

Tadbir kompozitsiyasi - asarda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni bir maqsad sari yetaklovchi g‘oya orqali, dramaturgiya qonuniyatlari asosida bir-biri bilan bog‘lovchi tuzilmadir. Teatrlashtirilgan tadbirlarning kompozitsion tuzilishi prolog (muqaddima), bosh voqea, voqelar rivoji, tugun, qarama-qarshilik, kulminatsiya, final kabi komponentlarni o‘z ichiga oladi. Ba’zi hollarda teatrlashtirilgan tadbirlar, xususan ommaviy tadbirlarning kompozitsion tuzilishida tugun, qarama-qarshilik, yechim kabi komponentlar uchramaydi. Chunki bu tadbir to‘laqonli teatrlashtirilmagan bo‘lib, maqsad va g‘oya asosan qo‘shiq mazmuni va raqs harakatlarida yuzaga chiqariladi.

Mavzu - bu tadbir uchun tanlangan, mahalliy aholini har tamonlama qiziqtiradigan, barcha voqea-hodisalarni birlashtiruvchi omildir.

G‘oya - bu tadbirda ilgari suriladigan asosiy fikr. Fikrning kuchli va aniqligi tomoshabinni zeriktirishga qo‘ymaydi. Shuning uchun g‘oyaning oydinlashishi tadbir oxiriga mo‘ljallanishi kerak. Tadbir davomida tomoshabinlar ijtimoiy g‘oya haqida, uning asosiy fikri haqida o‘ylasin, qiziqishi orsin. Amalda esa ko‘pgina tashkilotchilar g‘oyani tayyor ko‘rinishda, tadbirning boshlanishidayoq berib qo‘yishadi. Bu esa tomoshabinning tadbirga bo‘lgan qiziqishini kamaytiradi, tadbir qiymati pasayadi.

Maqsad - bu tadbirning tomoshabinga “nima demoqchi” ekanligidir. Har bir ssenariy muallifi va rejissyor asar yaratishdan oldin, “men bu orqali tomoshabinga nima demoqchiman?” tariqasida o‘ziga savol bermog‘i va o‘z o‘rnida asar orqali javob qaytarmog‘i lozim. Tadbirga qo‘yilgan maqsad voqealar zanjiri bo‘lib, u voqea harakatlarida rivojlanib boradi.

Prolog- asarning boshlanish qismi bo‘lib tadbir nima haqidaligidan xabar beradi. Tomoshabin diqqatini asosiy voqealarga qaratadi. U ko‘tarinki kayfiyat, go‘zallik va nafislikni talab qiladi. Bu qismda hujjatli materiallar, filmlardan lavhalar, ta’sirchan vositalardan keng foydalanish mumkin. Prolog nafaqat sahnada

balki tadbir o'tkaziladigan maydonga kirish yo'lakchalaridan ham boshlanishi mumkin.

Bosh voqea - bu prologdan keyingi ko'rinish bo'lib, voqealar rivojini ta'minlovchi omildir. Bunda tadbirning g'oya va maqsadiga ozroq bo'lsada urg'u beriladi.

Voqealar rivoji - bu tadbir mazmuni va syujetinining murakkablashuviga yordam beruvchi voqealar bo'lib, ular tugun, qarama-qarshilik, kurash, to'qnashuv va qiyinchiliklarni yengish jarayonidir.

Tugun - bu tomoshabinning bevosita fikri va his-tuyg'usining ma'lum bir jumboqqa qaratilishi. ya'ni asar qahramonlarining kutilmagan voqealarga duch kelishi. Tugun asarda qarama-qarshilikning kuchayishiga, asosiy voqealarning rivojlanishiga turtki bo'lishi kerak.

Qarama-qarshilik - bu tadbir maqsadi va mazmuniga, asardagi qahramonlarning xatti-harakatiga zid bo'lgan voqeadir. Qarama-qarshilik qanchalik kuchli bo'lsa, tomoshabinning tadbirga qiziqishi shunchalik ortadi. Ommaviy tadbir va tomoshalar ssenariysi tomoshabinga ko'p tomonlama emotsional ta'sir qilishi bilan birga tomoshabinlarni tadbirning faol ishtirokchisiga aylantirib, tomoshabinni, qahramonlar o'rtasidagi u yoki bu qarama-qarshiliklarga bo'lgan munosabatlari, kechinmalarida birga bo'lishni talab qilmaydi. Shuning uchun ommaviy tadbir va tomoshalar ssenariysida doimo qarama-qarshilikning bo'lishi talab qilinmaydi. Masalan, «Navro'z», «Mehrjon», «Birinchi qadam» tadbirlari, xalq sayillari. Bunday tadbir va sayillarda teatrlashtirish janrlaridan foydalanilmasa umuman qarama-qarshilik bo'lmasligi mumkin.

Kulminatsiya - bu tadbirning eng qiziqarli cho'qqisi demakdir. U o'z-o'zidan yechimga olib keladi. Kulminatsiyani o'zida ifodalagan epizod to'g'ri va bevosita tomoshabinning fikri, tuyg'ularini qo'zg'ash kuchiga ega bo'ladi.

Final - bu asarning yakuni, oxirgi eng muhim qismi. Finalda barcha voqea o'z yechimini topadi. Final ko'tarinki kayfiyatda, barcha ishtirokchilarning sho'xshodonligi bilan yakunlanadi. Finalning yaxshi tugallanmasligi tomoshabin

his-tuyg‘ ularining susayishiga, asar qimmatining pasayishiga olib keladi. Final ba’zi hollarda butun ijrochilarning sahnaga ommaviy chiqishlarida, jamoa bo‘lib qo‘shiq aytishlarida namoyon bo‘ladi.

Teatrlashtirilgan tadbirlarning kompozitsion tuzilishi ham adabiyotda bo‘lganidek har xil joylashishi mumkin. Masalan: tugun va qarama-qarshilik prologdan keyin kelishi yoki qarama-qarshilik va tugunning joyi almashishi ham mumkin. Bu holat tadbirning mazmun va maqsadiga asoslangan holda xato hisoblanmaydi.

Ssenariy muallifi yuqoridagi talablarga tayangan holda puxta ssenariyni yaratadi. Rejissyor ssenariyni qo‘lga olar ekan, uni eng avvalo tahlil qilib chiqadi. Har bir ssenariy dramaturgiyaning umumiy talablariga javob bera olishi har bir epizodning dramaturgik jihatdan tugallanganligi, obrazli kartinaning, tomoshabinga beriladigan emotsional ta’sirini boshidan oxirigacha o‘tib borishi uning badiiylik darajasini belgilaydi. Shunday bo‘lishiga qaramay tomoshalar ssenariysi, teatr pyesasi yoki badiiy film ssenariysidan farqli boshqacha uslubda quriladi. Undagi publitsistik masalada, odatda, ahamiyatli, ijtimoiy hodisalarni aniq qahramonlarning shaxsi konfliktlari orqali emas, balki ijtimoiy konfliktning ahamiyati epik prinsipda namoyon bo‘ladi. Ommaviy tadbir va tomoshalar ssenariy muallifi, o‘z ssenariysiga dramaturgik asarlardan parchalar olishi yoki aniq qahramonlar to‘qnashuvini ifodalovchi dramaturgik xarakterdagi parchalarni o‘zi yozishi mumkin. Bundan tashqari uning ssenariysiga san’atning boshqa turlaridan–musiqa, qo‘shiq, xoreografiya, sport-plastik chiqishlar, kino va video lavhalar namoyish etish, poeziya va x.k.lar kiritilish mumkin. Albatta ssenariyda qancha ko‘p badiiy vositalar qo‘llanilsa, shunchalik qiyin bo‘ladi. Lekin, g‘oyaviy-badiiy jihatdan yaxlit bo‘lgan asarni yaratish oson bo‘ladi. Shuning uchun ssenariy dramaturgiyasi, uni kompozitsion hal etilishi katta ahamiyatga egadir. Tadbirlar ssenariysi tomoshabinga ko‘p qirrali emotsional ta’sir qilishdek imkoniyatga ega ekanligi, hamma vaqt ham tomoshabinni aniq qahramonlar orasidagi u yoki bu konfliktidagi kechinmalarni boshdan kechirishga unchalik jalb qilinmaydilar.

Shuning uchun ommaviy tadbir va tomoshalar ssenariysi asosida konfliktning bo'lishi shart emas. Ba'zi ssenariy mavzularida konflikt umuman talab qilinmaydi. Agar ssenariydagi u yoki bu epizodda qandaydir ta'sirli ijtimoiy konflikt davrni tasvirlayotgan bo'lsa, demak butun ssenariy uni tasvirlashga qurilgan bo'ladi. Ommaviy tadbir va tomoshalarda tomoshabinga kuchli emotsional ta'sir ko'rsatish uchun birgina uslubdan foydalanish shart emas.

Tadbir shart-sharoitiga keladigan bo'lsak, u konflikt shart-sharoitining teskarisidir. Hatto – «ko'z yoshlar bilan kutib olingan» g'alaba tadbiri, dushmanga qarshi kurash g'oyasi bilan sug'orilgan bo'lishiga qaramay – o'z mazmuni bo'yicha harbiy qarama-qarshilikning tugashiga bag'ishlangan tadbirdir.

Shu vaqtgacha teatr dramaturgiyasi nazariyasi va amaliyotiga amal qilib kelgani uchun, har bir ommaviy tadbir va tomoshada konflikt bo'lishi kerak degan talabga rioya qilingan. Ommaviy tadbir va tomoshalar dramaturgiyasining yoshligi, san'atning mustaqil bir ko'rinishi sifatida endi odimlanayotganligi sababli, ming yillar davomida shakllanib kelayotgan dramaturgiyaning nazariyasiga tayangan. Ommaviy tadbirlarning o'ziga xos ssenariy yo'nalishi deganda, ssenarist va rejissyorlarning g'oyasiga javob beruvchi obrazlilik va tomoshaviylik bo'lishi lozim.

Ommaviy tadbir, xalq sayillarida ekspozitsiya funksiyasini qatnashchilarning kostyumlashtirilgan, teatrlashtirilgan yurishlari bajarishi mumkin. Ekspozitsiya, tugun vazifasini esa she'riy to'ldirishlar, pyesalardan ko'rinishlar, filmlardan parchalar, qo'shiqlar bajaradi. Ssenariy kompozitsiyasida asosiy harakatda, kurash jarayoni voqealardagi to'qnashuvlarning zanjiri namoyish etiladi. Ssenariyning bir qismi quyidagilarga bo'ysunishi kerak:

1. Mavzuning jiddiy, g'oyaviy qurilishi ssenariyning har bir epizodi bir-biri bilan g'oyaviy ko'priklar bilan birlashgan bo'lishi shart.

2. Harakat rivoji ekspozitsiya va tugun tomonidan harakat rivojlanish yo'nalishi bo'yicha kulminatsiya va yechimga olib boradi. Emotsional jihatdan kuchli epizodlardan, bo'sh epizodlarga o'tib bo'lmaydi. Ommaviy harakatga

ishtirokchilarni jalb qilish uchun bunday emotsional holatga, ishtirokchilarni ruhan tayyorlash lozim.

3. Har bir epizodni yakunlanganligi. Ssenariy doimo epizodlarga quriladi, ularning har biri o'zining g'oyasiga ega bo'lib, albatta boshqa epizod boshlanguncha tugallangan bo'lishi lozim. Minatyurada har bir epizod ssenariyni qaytarib, tugallangan kompozitsiya shaklida bo'lishi lozim.

4. Saflanishning kontrastligi. Bu talab ommaviy teatrlashtirilgan harakat kompozitsiyaga taalluqli bo'lib, ta'sirchan vositalarni sintezlash jarayonida bir xil buyoqlarni asosiy vosita qilib ko'rsatmaslik lozim.

Harakat albatta kulminatsiyaga olib kelishi kerak. Kulminatsiya jarayonida teatrlashtirishning g'oyasi to'liq ochib beriladi. Bizga ma'lumki ommaviy tadbir va tomoshalar ssenariychilari mutaxassislik sifatida oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida tayyorlanmaydi. Bu funksiyani hozirgi kunda shoirlar va adiblar ma'lum ma'noda bajarmokdalar. Lekin baribir asosiy og'irlik rejissyorlarning zimmasiga tushib, u ssenariy muallifi vazifasini bajarib kelmokda. G'oya, tashkilotchilardan (rejissyor, balayetmeyster, ssenarist va boshqa)lardan dasturlarni (nomerlarni) tanlab olish, qayta ishlash va yangiliklarni yaratishni talab qiladi. Mahalliy materiallar asosida ma'lum nomerlarning taxtligi tadbir rejasini tuzishga asos bo'ladi va ssenariy yaratish jarayoni boshlanadi.

Ommaviy tomosha harakatchan, tomoshaviy, emotsional obrazli bo'lishi kerak. Unga statistik deklomatsiya, quruq gapli epizod va sahnalar mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Bu yerda dialog va monologlarni o'rnini ramziy va allegorik qurilishlar, plastik metaforalar obrazli mizanssenalar, assotsiativ tovushlar qatori va x.k.lar, xullas audio-vidual obrazlar sistemasi egallaydi. Bu narsa, ayniqsa ochiq havoda o'tkaziladigan tadbir tomoshalarida yaqqol ko'rinadi. Amaliyot shuni ko'rsatayaptiki, ba'zi tomoshalarining asosini asosan quruq matnlarning o'zigina egallab, harakat ikkinchi o'ringa tushib qolgan.

Ba'zi rejissyorlar epizodlardagi adabiy matnlarni «Jonli kartina»lar bilan almashtirishga harakat qilmokdalar. Lekin harakatdan tashqaridagi obraz hech

qanday effekt bermaydi. Konfliktsiz, kurashsiz bo‘lgan tomoshaning ommaviy harakatchan qatorlari faqatgina illyuyatratsiya vazifasinigina o‘taydi, xullas tomoshani zerikarli qilib qo‘yadi. Bu esa har qanday tomosha san’ati uchun fojia. Sahna harakatini jismoniy harakat bilan almashtirish stadionlarda o‘tkazilayotgan ko‘pgina tomoshalarda ham qo‘llanilmokda. Sportchi – rejissyorlarning ko‘payishi natijasida (trenerlar, ommaviy gimnastika chiqishlarni tayyorlaydigan mutaxassislar) ommaviy tomoshalarda musiqiy ritmik saflanishlar, sport nomerlari va x.k.larning ishlatilishi sababli, jismoniy tarbiya xarakterini egallab, teatrlashtirish uslubi yo‘q bo‘lib ketyapti. Hozirgi kunda o‘tkazilayotgan tadbir tadbirlarida ba’zi rejissyorlar faqatgina prolog va finalni sahnalashtirib, uning asosiy qismida konsert nomerlari namoyishi bilan shug‘ullanmoqdalar. Hatto mana shunday sharoitda ham rejissyor – ssenariy muallifi nomerlarning ketma-ketligi, janr va ritmlarni to‘g‘ri joylashtirish, emotsional rivojlanishi haqida o‘ylashi kerak.

Ommaviy tomosha – estrada konsertidek tayyor nomerlar prokati bo‘lmay, shu bilan birga qandaydir tezisni tasvirlash ham emas. Bu turli janrdagi nomerlarni, hujjatli materiallarni, kino-video, maxsus yozilgan matnlar va h.k.larning qorishmasi bo‘lib, undan yangi sifatli, yangi sintetik, kompleks janrdagi asar tug‘iladi.

Oxirgi yillarda bizning ssenariy mualliflari va rejissyorlarimiz faqatgina ma’lum sanalargagina bag‘ishlangan ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalarni sahnalashtirish bilan chegaralanmoqdalar. Jahon tajribasidan bizga ma’lumki, tarixiy obidalar, ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalar o‘tkazish joyiga aylanib, minglab sayyohlarni o‘ziga jalb etmoqda. Masalan, Misr piramidalari, Fransiya va Germaniyadagi qasrlar, Chexiya, Bolgariya, Angliyadagi obidalarda ko‘p yillardan beri turli tovushli spektakllar, ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalar o‘tkazib kelinmokda. Nahotki, bizning O‘zbekistonimizda Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz kabi shaharlardagi butun dunyoga mashhur tarixiy obidalarda shunday tomoshalar o‘tkazish mumkin emas? Ssenarist rejissyorlar bunga e’tibor

berishganda, shu obidalarning tarixi bilan bog'liq tomoshalarni yaratishganda sayyohlik ham rivojlanar edi. Masalan, Samarqand shahrining Registon majmuasida o'tkazilgan Amir Temur, Mirzo Ulug'bek tavalludlariga bag'ishlangan (Rejissyor B.Yo'ldoshev) ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalar o'ziga xos uslubda hal etilgan. Tomoshani shu tarixiy obidada o'tkazilishi, obrazlarning haqqoniyligini ta'minlab, tomoshaning emotsional ta'sir kuchini yanada oshirdi. Bu tomoshalarda joy harakatlanuvchi shaxsga aylandi. Bu yerning arxitektura xususiyatlari, tarixiy assotsiatsiyalar katta ahamiyat kasb etadi.

Mirzo Ulug'bekka bag'ishlangan teatrlashtirilgan tomoshaning kulminatsiyasida Ulug'bek yotgan beshikni osmondan (maxsus troslarga o'rnatilgan beshik tepadan tushib keladi) tushib kelishi, o'ziga xos allegoric g'oyani ilgari surib, emotsional ta'sirli chiqdi. Hozirda bu ssenariylarni va sahnalashtirishni asosan teatr rejissyorlari amalga oshirmoqdalar. Tumanlarda u esa o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan musiqachilar yoki sportchilar ssenariy muallifi, rejissyorlik vazifasini bajarmoqdalar. Ssenariylar esa quruq she'r va qo'shiqdan iborat bo'lib, hech qanday ommaviy teatrlashtirilgan harakat, tadbirning kompozitsion qurilishiga ahamiyat berilmaganligi bu tadbir tadbirining juda past darajada tashkil etilishiga sabab bo'lmoqda.

Oxirgi paytda o'tkazilgan Sidney, Afina, Turin, Doxa, Pekin Olimpiadalarining ochilish va yopilish tomoshalari buning isbotidir. Ishonamizki, yaqin kelajakda biz va bizning tengdoshlarimiz shunday ommaviy tadbir va tomoshalarning ssenariylarini yozib, puxta rejissura asosida ko'p yillik tajribalarga tayangan holda, o'zbek ommaviy tomosha san'atini nimalarga qodir ekanligini butun jahonga namoyish etishdek baxtga muyassar bo'ladilar.

Zamonaviy ommaviy tadbir va tomoshalar tahlilida shuni ko'rdikki, ommaviy tadbir va tomoshalar dramaturgiyasida tadbirning kompozitsion tuzilishi ko'p yillardan beri bir xil uslubda hal etilmokda. Eng achinarlisi teatrlashtirilgan ommaviy tomoshalarda barcha tomoshani qo'shiq va raqs egallashi ham, ssenariyning badiiy-g'oyaviy jihatdan bo'sh yozilganligining dalolatidir.

Tadbirlar insonlarni go‘zalikka chorlovchi, birlashtiruvchi vositadir. Tadbir shunday bir ijtimoiylikki har qanday davrda ham uning bosh maqsadi inson tarbiyasidir.

Mazkur sohani yanada chuqurroq o‘rganish, O‘zbekistonda o‘tkaziladigan tadbirlarining ma’naviy asosi, tarbiyaviy ahamiyati borasida hali ko‘pgina ilmiy ishlar amalga oshirilishi joiz deb o‘ylayman. Chunki tadbir va tomoshalar bizning millatimizning bitmas-tugunmas xazinasidir. Bu sohada tinimsiz ish olib borish esa biz yoshlar, soha mutaxassislarining zimmasidadir.

Mavzu bo‘yicha o‘rganilgan muammolardan kelib chiqib, quyidagilarni tavsiya sifatida bayon etaman:

1. Har bir tadbir ssenariysini yaratishda tarbiyaviy jarayonlar aks etishiga katta e’tibor qaratish;

2. Ssenariy yaratishda xalqqa yaqin bo‘lgan ijod namunalari, xalq sevadigan kuy va qo‘shiqlardan o‘rinli va unumli foydalanish;

3. Tadbirlarni tashkil etishda g‘oyaviy talqin maslalariga jiddiy e’tibor berish;

4. Ssenariyda yoshlarga namuna, o‘rnak, ibrat bo‘ladigan manbalardan foydalanish;

5. Ajdodlarimizning ilmiy va ma’naviy merosini o‘rganishga oid manbalarni badiiylashtirilgan holda xalqqa yetkazish;

6. Joylarda o‘tkaziladigan tadbirlar sifatini yanada yaxshilash maqsadida barcha tadbirlarni optimallashtirish ya’ni umumiyashtirish kerak;

7. Tomoshabinlarning diqqatini sahnaga jalb etish uchun, dekoratsiyalar, sahna bezaklaridan mohirona foydalanish va tadbir mavzusi bilan ularni uyg‘unlashtirish;

8. Oliy ta’lim muassasalarida “Ssenariynavislik mahorati” fanini chuqurroq o‘qitish va bu orqali talabalarning tadbirlarni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rgatish va salohiyatini yuksaltirish.

9. Mutolaa madaniyatini shakllantirish, adabiyotlardan to'g'ri foydalanish, dramaturgik qobiliyatni rivojlantirish;

10. O'tkazilgan tadbirlar videosini ko'rish, qayta tahlil qilish va kamchiliklarini to'ldirish.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda insonlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularni ma'naviy bilimlarini oshirish, dunyoqarashlarini kengaytirish, moddiy, ma'naviy va estetik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan manbalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

X U L O S A

Yurtimiz mustaqilik tufayli jahonga yuz tutmoqda. Hukumatimiz tomonidan madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishga oid Qaror, farmonlar, xujjatlar ishlab chiqilmoqdaki, uning negizida yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, komil inson tarbiyasi, insonlarning manfaatlari, ehtiyojlarini qondirishga qartilgan vazifalar turibdi. Bu tushunchalar talqini muhim ijodiy va tashkiliy jarayonlarni qamrab oladiki, unda madaniyat xodimlari, san'at sohasi vakillari zimmasiga katta ma'suliyat yuklanadi. Aholini ma'naviy kamol toptirish, madaniy bilimlarini oshirish, ularni pok va halol yashashga chaqirish, mustahkam e'tiqodga ega bo'lish kabi xususiyatlarni shakllantirishda madaniy tadbirlar tashkilotchilariga alohida bilim, ko'nikma, mahorat va mehnat talab qilinadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishdan asosiy maqsad shuki, milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish va ommalashtirish, o'sib kelayotgan avlodni, zamonaviy yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo'lgan hurmatni uyg'otish va saqlash, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda faol ishtirok etishdir. Zotan, xalqlarning o'ziga hosligi va betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san'at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an'ana va urf-odatlarining o'zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat muhitini qaror toptirish uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlar ahamiyatini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Insonlar ongida ma'naviy-ma'rifiy, ahloqiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tushunchalarini kengaytirish, jamiyatning faol a'zosiga aylanish, Vatanni sevish, tinchlik, mustaqillikning qadriga yetish kabi qadriyatlar – ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Darhaqiqat, "ma'naviyatni yuksaltirish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri. Kelajak poydevori bo'lmish yoshlar qalbi va ongiga boy ma'naviy merosni singdirish asosida barkamol avlodni shakllantirish esa undan ham dolzarbroqdir. Chunki Vatanimiz kelajagi, xalqimiz oldida turgan ulkan maqsadlarga erishish, avvalo yoshlarimizga, ularning har

tomonlama barkamol inson bo‘lib yetishishga bog‘liqdir”.¹⁰ Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, komil inson tarbiyasidagi ma’naviy-ma’rifiy, ahloqiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligiga erishish muhim vazifalardandir.

“Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yurtimizda ma’naviyatni yuksaltirishga katta e’tibor berilishi bejiz emas. Chunki, iqtisodiy rivojlantirish, mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni jahon siyosati sahnasiga olib chiqish kabi vazifalarni ma’naviyatni yuksaltirmay turib amalga oshirish mumkin emas. Zero, barkamol avlodni tarbiyasi ham bunday ulug‘ maqsadlarga erishishning asosi hisoblanadi. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida va axloq qoidalari asosida tarbiyalash, yosh avlodda hayotga qat’iy ishonch va qarashni, mentalitetimizga yot bo‘lgan zararli ta’sir va oqimlarga qarshi tura olish qobiliyatini rivojlantirish barcha pedagoglar va madaniy-ma’rifiy ishlar mutassadilarining asosiy ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Shu jihatdan ham barkamol avlod tarbiyasida madaniy tadbirlarning tashkil etishni maqbul usullaridan foydalanish, madaniy tadbirlarda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan manbalar va usullarni mahorat bilan qo‘llay olish, insonlar ongiga ta’sir qilish, bir so‘z bilan aytganda, komil inson tarbiyasiga qaratilgan barcha jarayonlardan maksimal foydalanish mazkur o‘quv qo‘llanmaning maqsadlarini belgilaydi. Tadbirlarni tashkil etish, uning dramatik asosini yaratish, sahnalashtirish, tomoshabinga tatbiq etish va tarbiyaviy asoslarga yo‘naltirish, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan manbalarni qo‘llay olish, odob, ahloq, jamiyat taraqqiyoti masalalariga ongli yondoshish, ularni bilimli, ilimli qilish, ma’naviyat bilan qurollantirish, komil insonni tarbiyalashga qaratilgan vazifalar- madaniy tadbirlarni mahorat bilan tashkil etilishiga asos bo‘la oladi”¹¹.

Mazkur tadqiqotning afzalligi shundaki, hozirgi kunda globallashuv davrida o‘tkazilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning g‘oyaviy yo‘naltirganlik, tarbiyaviy

¹⁰ To‘plam. “Ma’naviyat –jamiyat taraqqiyotining bosh mezon”. Toshkent, 2011., 342b.

¹¹ B.Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. Toshkent, 2016.,45b.

ahamiyatga ega ekanligi, insonlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga, aniq maqsadlarga yo'naltirgan holda tashkil etishga qaratilganligidadir.

Respublikamiz Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarorida "Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Xususan, oila, mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, chekka hududlar va mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan maqsadli g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo'shilib qolish, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot ishlarining aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani"¹² haqida gapirib, uni yaxshilashga, takomillashtirishga oid taklif, tavsiyalarni berib quyidagilarni aytadi: "dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorism, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat", narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish"; jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish; yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini

¹²Respublikamiz Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qaroridan.

oshirish, ularda g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish”¹³.

Mazkur xujjatda belgilangan vazifalarni amalga oshirish –ma’naviy-ma’rifiy isho‘larning asosiy funksiyalarini tashkil etadi. Bunda yuqorida qayd etilgan barcha bo‘limlardagi vazifalar alohida mavzu sifatida, alohida tadbir sifatida tashkil etishini biz madaniyat xodimlari amalga oshirishimiz lozim.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat yurtimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirok etishi lozim.

¹³Respublikamiz Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi Qaroridan.

GLOSSARIY

Afisha - spektakllar, konsertlar va boshqa adabiy tadbirlar tomoshalar to'g'risida xabar beruvchi, ko'zga ko'rinar joylarga yopishtirilgan maxsus e'lon.

Dramaturgiya - Dramatik asarlar majmuasi. Dramatik asar tuzilishi haqidagi nazariy.

Inssenirovka - drama shaklida yozilmagan adabiy asarni teatr sahnasi, radio, televideniye uchun moslab qayta ishlash varianti, shuning natijasida yaratilgan asar.

Komediya - ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni, kishilardagi yaramas hususiyatlarini kulgi vositasi bilan fosh etuvchi quvnoq hushchaqchaq xarakterdagi dramatik asar.

Tadbir - biron ishni, maqsadni amalga oshirish, ro'yobga chiqarish vositasi – shuning uchun puxta o'ylab tuzilgan, ishlab chiqilgan amaliy choralar majmuidir.

Kulminatsiya- biror voqea yoki hodisa rivojlanishidagi eng yuqori nuqta, avjiga chiqishi

Bayram - turkcha, xursandchilik, shodiyona ma'nolarini beradi

Prolog – Voqeaning boshlang'ich qismi

Pyesa - Teatrda qo'yish uchun mo'ljallangan dramatik asar

Remarka - dramatik asar matnida muallif tomonidan beriladigan turli izohlar.

Spektakl - teatrning ijodiy jamoasi tomonidan sahnaga qo'yiladigan teatr tomoshasi.

Ssenariy - asar tuzilmasi. Mahalliy dalillarga asoslanib yozilgan bo'lib, to'laqonli badiiy asar.

Kompozitsiya – lot. (Bir butun, yaxlit ma'nosini anglatadi)- asar tuzilishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari

1.2017 yil 31 maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” Qarori

2.Respublikamiz Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi Qarori

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi “2013- 2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 178-son Qarori.

4. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. T.: “Ma’naviyat”. 2008.

Darsliklar

5.X.Muhammad. Ssenariynavislik mahorati.Toshkent, 2002.

6.X.Abdusamatov. “Drama nazariyasi”. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 2000.

O‘quv qo‘llanmalar

7. B.Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. Toshkent, 2016.

8.Mamatqosimov J. “Ommaviy tadbirlar rejissurasida sahna ma’naviyati”. T.: “Fan va texnologiya”. 2009.

9. Qoraboyev U. “Ma’naviy tadbirlar”. T., 2000.

10.U.Qoraboyev. Badiiy ommaviy tadbirlar. Toshkent, 1998.

11.F.Ahmedov.. “Ommaviy tadbir va tadbirlar rejissurasi va aktyorlik mahorati”. T.: “CHO‘lpon”. 2007.

12.F.Ahmedov. “Ommaviy tadbirlar rejissurasi asoslari”. 2004.

To‘plam. “Ma’naviyat –jamiyat taraqqiyotining bosh mezoni”. Toshkent, 2011.

Internet saytlari: Ziyonet – O‘zbekiston ta’lim portali